

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

1-QISM

Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining
2-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2021

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O'zb)ya71
O 58

Tuzuvchilar:

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun

Xalqaro ekspert:

Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:

B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor.

N. Asqarova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi
67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



– o'qing



– savollarga javob bering



– o'quvchi daftariga yozing



– audiomatnni tinglang



– topshiriqni bajaring



– qoida bilan tanishing



– qiziqarli mashg'ulot



– partadoshingiz bilan bajaring



– rasmga qarang



– quvnoq musobaqa



– dars tugadi

Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /
K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 120 b.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiysi
Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlandi.*

MUNDARIJA

1-BO'LIM. O'ZBEKISTON – MENING VATANIM!

Vatanparvarlik nima? 5

Katta bo'lsam,
Nobel mukofotini olaman! 12



2-BO'LIM. MEN, SEN, U VA UALAR



Maktabim – ikkinchi uyim	16
Mustahkamlash.....	26
Tug'ilgan kuning bilan!	27
Mustahkamlash.....	34
Mening mahallam	35
Mustahkamlash.....	42

3-BO'LIM. TABIAT NE'MATLARI

Qishda uxlaydigan hayvonlar 43

Mustahkamlash..... 50

Yer ostida nima bor? 51

Mustahkamlash..... 59

Sayohatchi qushlar 60

Mustahkamlash..... 68




4-BO'LIM. SOG' TANDA SOG'LOM AQL



Bakteriya va mikroblar	69
Mustahkamlash.....	80
Foydali nonushta	81
Mustahkamlash.....	89
Tanamizni o'rganamiz	90
Mustahkamlash.....	97

5-BO'LIM. KASBIM – FAXRIM

Hunar – hunardan unar	98
Mustahkamlash	104
Kasblar	105
Mustahkamlash.....	110
Katta bo'lsam, kim bo'laman?	111
Mustahkamlash.....	116
Matnlarda qo'llangan so'zlar lug'ati	117



1-BO'LIM

VATANPARVARLIK NIMA?



Rasmlarga qarang. Vatanparvarlikni nimalarda ko'r-yapsiz?



- ① Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
- ② Qaysi ishlaringiz Vatan uchun foydali bo'lgan deb o'ylaysiz?
- ③ Qanday ishlar vatanparvarlik hisoblanmaydi?



1. “O'zbekiston” deganda xayolingizga qaysi so'zlar kelyapti? Ularni bo'g'inga ajratib yozing.

Namuna: Va-tan,

O'zbekiston tarkibidagi respublika va 12 ta viloyat nomini yozing.



5



Audiomatnni diqqat bilan tinglang.



Qaysi rasmlarda rapida, kosov va savat tasvirlangan?


(A)




(B)



(D)



(E)



(F)



(G)



Quyida berilgan so'zlarni ma'nosi bilan moslab o'qing.

savat

non yopishda ishlatalidigan qalin, aylana shaklidagi qo'lqop

rapida


tandir olovini, cho'g'ini to'g'rilash uchun ishlatalidigan uzun tayoq

kosov

tandirdan uzilgan non solinadigan idish



Sizningcha, muallifning ushbu audiomatnni yaratish-dan maqsadi nima?



A Tandirdan qanday foydalanishni o'rgatish

B Tandir qanday paydo bo'lgani haqida ma'lumot berish

D Tandir o'zbek milliy oshxonasining ramzi ekanini tushuntirish



2. Tinglagan matningiz asosida daftardagi topshiriqlarni bajaring.



CHUMOLINING JASORATI

Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangان keng o'tloq bo'lgan ekan. U yerdá qo'y-qo'zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan.



Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg'ir deyarli yog'mabdi. **Jazirama** quyosh tig'ida o'simliklar qurib, **qovjirab** qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o't ketibdi. Kutilmagan yong'in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma **tumtaraqay** qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o'tloq yaqinidagi buloqdan mitti og'izchasida suv keltirib,

olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko'rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

– Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kela-yotgan suv **zarrasi** bilan olov o'chib qolarmidi? Qo'y bu ishingni, joningni asra!

Shunda chumoli yumushidan to'xtamay javob beribdi:

– To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmaydi. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foy-dalanaman.

Chumolining bu gapi o'tloq ahliga qattiq ta'sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to'xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug'ida, qo'y-qo'zilar og'zida suv keltirib, olovni o'chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.

Sa'dullo Quranov



- 1 O'tloq ahli nima uchun birlashdi?
- 2 Ayting-chi, ushbu hikoyadagi chumoliga o'xshash odamlar hayotda ham uchraydimi? Ular o'z yurtlarini qanday asrashadi?
- 3 Sizda Vatanni asrash uchun zarradek bo'lsa ham imkoniyat bormi? Misol keltiring.
- 4 Fidoyilik deganda nimani tushunasiz? Hikoyadagi qaysi qahramonlar fidoyilik qilishdi?



Qaysi rasmda o'tloq tasvirlangan? O'tloqni ta'riflang.



Berilgan so'zlarni ma'nosi bilan moslab o'qing.

tumtaraqay

jazirama

qovjiramoq

zarra

jud a issiq

har tomonga tartibsiz qochish

jud a kichik bo'lak

suvsizlikdan so'lib,
quruqshab qolish

- “Bir yoqadan bosh chiqarib” iborasini izohlang.
 Nima deb o'ylaysiz, muallif ushbu hikoyani nima maqsadda yaratgan?

A

o'rmonga o't ketganida qanday o'chirish
mumkinligini tushuntirish uchun

B

chumolining mehnatkash
jonzot ekanini aytish uchun

D

o'tloqdag i jonzotlarning o'zaro
ahil ekanini ko'rsatish maqsadida

E

yurtga balo kelganida unga qarshi bir
yoqadan bosh chiqarib harakat qilish
kerakligini tushuntirish maqsadida



3. Berilgan maqollarning qaysilari “Chumolining jasorati” hikoyasi g’oyasiga mos? Tanlovingizni izohlang.

O’zga yurtda shoh bo’lguncha
O’z yurtingda gado bo’l.

Vatanga falokat –
o’zingga halokat.

Suvni bersang elga,
Yosharasan ming yilga.

Bulbulga bog’ yaxshi,
Kaklikka – tog’.

Kuch birlikda.

Harakatda barakat.



Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.



**Jarchi haqida eshitganmisiz?
U nima qiladi?**



МАHALLAMIZ JARCHISI



Shoxda shaqillar Hakka:
– Mehmon kelyapti, aka!

Uzgin behi, nok, anor,
Bog’da yana nima bor?

Tez pishiring palovni,
Burab turib mo’ylovni.

Qarab ko‘r-chi, qizaloq,
Tozami idish-tovoq?

Yeng shimaring, kelinoyi,
Damlab qo‘ying ko‘k choyni.

So‘ngra yelib-yugurib,
Uy-hovlini supurib,

Yoying shoyi dasturxon,
Yoping issiq patirnon.

Yo‘lakka suv sepib qo‘y,
Mehmon kelgan uyda – to‘y...

Bo’shashma, hoy bolakay,
Xizmatga sen turgin shay.

Endi meni kuzating,
Suyunchini uzating.

Anvar Obidjon




- 1 Hakka nima uchun shaqilladi? Shaqillash nima?
- 2 Hakka kimga qanday ish qilishni buyurdi?
- 3 Hakkanning “Mehmon kelgan uyda – to‘y” degan fikriga qo‘shilasizmi? Nima uchun?
- 4 Uyingizga mehmon kelganida oila a’zolarингиз qanday ishlarni bajarishadi? Siz-chi?
- 5 She’rga yana qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?



4. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni toping.



She’r matnidagi ketma-ketlik asosida rasmlarni tar-tiblab chiqing.



- She’r matnidan olingan gaplarning to‘g’ri yoki xato yozilganini aniqlang.
- “Mahallamiz jarchisi” she’ridan bitta xabar, bitta so‘roq hamda bitta buyruq mazmunidagi gapni ko‘chiring. Tinish belgilarini to‘g’ri qo‘ying.



Siz Vatanni qanday tasvirlaysiz? Vatanimiz manzalarini chizing. Nimalarni tasvirlaganingiz haqida gapirib bering.

1-BO'LIM

KATTA BO'LSAM, NOBEL MUKOFOTINI OLAMAN!



Rasmlarga qarang. Olimlarning nima ish qilayotganini ayting.



- 1 Olimlar yana qanday ishlar bilan shug'ullanishadi?
- 2 Nima deb o'ylaysiz, olimlar bo'lmasa, dunyo qanday bo'lar edi?
- 3 Sizningcha, O'zbekistonda yaxshi olimlar ko'paysa, qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- 4 Siz ham olim bo'lib, O'zbekistonni yanada rivojlantirishni istaysizmi? Nima uchun?
- 5 Qaysi sohaning yetuk mutaxassis, olimi bo'lishni xohlaysiz? Nima uchun?



1. Maqollarni yozing. Ma'nosini tushuntiring.

Bilmaganini so'rab o'rgangan – olim,
Orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.

Ilmsiz bir yashar,
Ilqli ming yashar.

Bilagi zo'r birni yiqrar,
Bilimi zo'r – mingni.

Ilqli uy – charog'on,
Ilmsiz uy – zimiston.



“Nobel mukofoti” audiomatnini tinglang.

- 1 Alfred Nobel nimalar ixtiro qilgan edi?
- 2 Nega u o‘zi qilgan ishlardan pushaymon bo‘ldi?
- 3 Olim nima sababdan Nobel mukofotini o‘ylab topdi?
- 4 Nobel mukofoti qaysi sohalar bo‘yicha beriladi?
- 5 1901-yilda ilk mukofot kimlarga berildi?
- 6 Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan odamga qancha pul beriladi?
- 7 Mukofot o‘z egalariga qaysi davlatlarda topshiriladi?



Quyidagi so‘zlar qanday talaffuz qilinadi?

Nobel

Shvetsiya

Dollar

Fond


Diplom



2. Berilgan topshiriqlarni bajaring.



Soha mutaxassislari nomini toping.



iqtisodchi

matematik

kimyogar

me’mor

biolog

fizik



3. Olimlar nimalar bilan shug'ullanishi haqida yozing.



NOBEL OLAMAN!

Ismim – Muhammad, familiyam – Haydarov. Ikkinci sinfda o'qiyman. Men tabiatdagi g'aroyib narsalarga qiziqaman. Shuning uchun ham eng sevimli fanim – tabiiy fanlar.


Tabiatda sirli narsalar ko'p. Oddiygina yomg'ir yoki shamolning qanday paydo bo'lishi haqida o'qisam, hayratlanib ketaman. Ayniqsa, osmondagи yulduzlar, sayyoralar haqida ko'proq bilgim keladi.

Katta bo'lsam, astronom bo'laman. NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayman. Ularga koinotni o'rghanishda yordam beraman. O'zim ham fazoviy kemalar yasayman. Ularda fazogirlar Oy va Marsga uchishadi.

Yaxshi astronom bo'lish uchun hamma fandan a'lo baholarga o'qish kerak. Fizika, matematika va kimyoni chuqurroq o'rghanish kerak. Chunki boshqa galaktikalarga uchsak, bu bilimlar kerak bo'ladi.

Kelajakda Nobel mukofotini olmoqchiman. O'zbek olimlari haligacha bu mukofotni olmagan. Men Nobel mukofotini olgan birinchi o'zbekistonlik bo'lishim mumkin. Buning uchun esa hamma odamlarga foyda keltiradigan katta ish qilish kerak. Bu oson emasligini bilaman. Lekin men albatta harakat qilib ko'raman.






- 1 Muhammad Haydarov katta bo'lganida qanday ishlar qilmoqchi?
- 2 Ayting-chi, u o'z maqsadiga erishishi uchun qaysi fanlardan yaxshi o'qishi kerak?
- 3 U nima uchun Nobel mukofotini olmoqchi?
- 4 Siz ham Nobel mukofotini olishni istaysizmi? Nima uchun?



“Nobel mukofoti” audiomatni yodingizdam? Mukofotni qo'lga kiritish bosqichlarini ayting.



4. Berilgan topshiriqlarni bajaring.



Yulduz va sayyoralar, turli osmon jismlariga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi. Masalan: **Oy, Mars** kabi.



5. “Katta bo'lsam, Nobel olaman” nomli hikoya yozing. Hikoyangizda quyidagi savollarga javob bo'lsin:

- Qaysi soha olimi bo'lasiz?
- Nobel mukofotini olish uchun qaysi fanlarni chuqurroq o'rganasiz?
- Qanday ixtiolar, yangiliklar qilasiz?
- Sizning ixtiolaringiz O'zbekistonga qanday foyda keltiradi?




15

2-BO'LIM

MAKTABIM – IKKINCHI UYIM



Rasmdagi narsalarni maktab bilan nima bog'lab turadi? Aytib bering.



- Rasmda berilgan narsalarning birini tanlang.
- U bilan bog'liq biror qiziqarli voqeani so'zlab bering.
- So'zlab beradigan voqeangiz hech kimnikiga o'xshamasligi, juda ham ajoyib bo'lishi kerak.



Uch guruhgaga bo'lining. Quyidagi jadvalni xattaxtada to'ldiring.

O'quv qurollari	Maktab va sinfdagi jihozlar	Maktabda kimlar ishlashi va o'qishi



“Maktab” audiomatnini tinglang.



- 1 Maktabda qanday bilimlar o'rgatiladi?
- 2 Maktabda olinadigan bilimlar nima uchun kerak?
- 3 Maktabda o'qish majburiy ekani qaysi hujjatda yozib qo'yilgan?
- 4 Qadimda maktablar qanday nomlangan?
- 5 Tarixda ta'limning maktabdan keyingi bosqichi nima deb atalgan?
- 6 Zamonaviy ko'rinishdagi ilk maktablarni kimlar ochgan?
- 7 Hozir yurtimizda qancha maktab bor?



1. Berilgan qaysi so‘zlarga **partadosh** so‘zidagi **-dosh** qo‘sishchasini qo‘sish mumkin? Aniqlab yozing.

sinf

qishloq

shahar

o‘quvchi

do‘s

Vatan

kitob

mahalla



2. Berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, matnni to‘ldiring.



-dosh qo‘sishchasi orqali yangi so‘z yasash mumkin.



SHIPPAK

1-qism

Firdavs aslida yomon bola emas. Biroq sal uyquchi. Doim darsga kech qoladi. U hozir ikkinchi sinfda o‘qiydi. Ammo shu vaqtgacha biror marta o‘zi uyg‘onmagan. Har kuni ertalab oyisi:

– Firdavs, bo‘laqol, o‘g‘lim, tong otdi, maktabingga kech qolma, – deydi. Firdavs esa:

- Xo‘p, hozir, – deydi-yu, aqalli boshidagi ko‘rpani ochmaydi. Keyin buvisi chaqiradi:
- Firdavs, turaqol, toychog‘im, Malika allaqachon kiyinib bo‘ldi. Tag‘in sinfga ustozingdan ham keyin kirib borma, uyat bo‘ladi.

– Xo‘p, buvi, hozir, – deydi Firdavs javon ustidagi soatga ko‘z tashlab...

Bugun ham shunday bo‘ldi. Unga oyisi va buvisining gaplari kor qilmadi. So‘ng eshik tagida dadasingning ovozi momaqaldiroqday jarangladi. Ana shunda Firdavsning ko‘zi moshday ochilib, o‘rnidan sakrab turdi.

Nonushta qilish uchun dasturxon yoniga kelganida Rustam amakisining qizi Malika nonushtani tugatib, o‘rnidan turayotgan edi.

– Bo‘laqol, amaking ham ishga kech qolmasin, – dedi oyisi o‘g‘liga quyilgan shirin choyni piyoladan piyolaga shopirarkan.

– Xo‘p, hozir.

Tashqaridan amakisining ovozi eshitildi:

- Firdavs, ketdikmi?..
- Ha, ketyapman. – Firdavs sumkasini yelkasiga ilgancha mashinaga qarab yugurdi.
- Xayriyat, – dedi buvisi. – Bugun sal barvaqtroq ketishdi, Xudo xohlasa, darsga vaqtida ulgurishadi.



- 1 Firdavs qanday bola?
- 2 Malika Firdavsga kim bo‘ladi?
- 3 Firdavsning oilasini qanday tasavvur qildingiz?
Sizningcha, bu xonadonda nechta odam yashaydi va ular kim?
- 4 Ovozning momaqaldiroqdek jaranglashi qanaqa bo‘ladi?
- 5 Ona nima uchun choyni piyoladan piyolaga shopirdi?



3. So‘zlarni izohi bilan moslashtiring.



4. Matndan 3 ta xabar mazmunidagi gapni aniqlab yozing.

Namuna: U hozir ikkinchi sinfda o‘qiydi.



SHIPPAK

2-qism



Ular maktabga o‘n daqiqada yetib borishdi.
– Bo‘pti, tezroq tushinglar, ikki daqi-qadan so‘ng qo‘ng‘iroq chalinadi, – mashinani maktab darvozasining naq tumshug‘ida to‘x-tatdi Rustam aka. – Oh-

ho, yomg‘ir kuchayibdi-ku, kurtkangizning qalpog‘ini kiyib oling.

Rustam aka bolalar tushishi bilan mashinasiga gaz berdi. Shu choq qo‘ng‘iroq chalindi.

– Voy, aka! – darvozadan o‘tishlari bilan baqirib yubordi Malika.

– E, nega baqirasan?! Qo‘rqib ketdim-ku.
– Oyog‘ingizga qarang, etikingizni kiymabsiz.
– Nima?! – Firdavs ne ko‘z bilan ko‘rsinki, oyog‘ida hovlida kiyiladigan yengilgina shippak. Shoshilinchda uni almashtirish esidan chiqibdi. U bir oyog‘iga, bir shovullab yog‘ayotgan yomg‘irga qarab qoldi.

Eti junjikdi. Aksiga olib, amakisi ham ketib bo'ldi. Firdavs mung'ayib Malikaga qaradi:

- Sen kiraver, kech qolma tag'in.
- Siz-chi? – ikkilandi Malika.
- Men... Bobomga qo'ng'iroq qilaman, etigimni olib kelib berishar... Shippakda kirsam, bolalarga kulgi bo'laman-ku!

Malika noiloj akasini qoldirib, sinfga yugurdi. Firdavs yuziga oqib tushayotgan muzday tomchilarni sidirib, asta qorovulxona tomon yurdi. Qo'ng'iroq esa "Qalaysan, uyquchi?!" deganday cho'zib-cho'zib jiringlardi.

Muhabbat Hamidova



- 1 Mashinani mакtab darvozasining naq tumshug'ida to'xtatish qanday bo'ladi?
- 2 "Rustam aka mashinasiga gaz berdi". Bu holatni siz qanday tasvirlagan bo'lar edingiz?
- 3 Firdavs etigi yo'qligini bilganida qanday ahvolga tushdi? Uning yuz ifodasini o'xshatib bering.
- 4 Ayting-chi, Firdavs uyqudan vaqtli turganida hikoya qanday o'zgarar edi? So'zlab bering.



5. Jadvaldagи so'roqlarga mos keluvchi so'zlarni hikoyadan topib yozing.

МАКТАБИМ

U – ilmning o‘chog‘i,
Ona kabi quchog‘i.
Bag‘rida men ungayman,
Quvnab bilim olgayman.



Bunda mehribon ustoz,
Qalbi oftob, qalbi yoz.
Har so‘zin jondan tinglab,
Odobimiz bo‘lar soz.



Do‘stlarim bor bir jahon,
Orzulari baxtga kon.
Bir kun kelib uchgaymiz,
Kelajakni quchgaymiz.

Dilrabo Saydullayeva

- 1 Nima uchun she’rda maktab onalar quchog‘iga o‘xshatilgan?
- 2 She’rda qalbi oftob, qalbi yoz deya kimlarga ta’rif berilgan?
- 3 “Orzulari baxtga kon” deb kimlar aytilyapti?
- 4 “Bir kun kelib uchgaymiz, kelajakni quchgaymiz” deganda nima nazarda tutilgan?



6. Berilgan so‘zlarni she’rdagi kabi chiroyli ta’riflab gaplar tuzing.

o‘qituvchi

sinfdosh

kitob

maktab





Rasmlarda qanday holatlarni ko'ryapsiz? Ular haqidagi gapirib bering.

NIMA YAXSHI?



- ① Eng yaxshi maktabni qanday tasavvur qilasiz?
- ② Eng yaxshi o'qituvchi qanday bo'ladi?
- ③ Sizningcha, eng yaxshi dars qanday bo'ladi?
- ④ Eng yaxshi darslik qanday bo'lishi kerak?



7. Maktabda eng ko'p qo'llaydigan so'z va gaplaringizni yozing.



23



8. Maktabingizdagi muammolarni yozing.

Maktab binosidagi muammolar

maktabning joylashuvi

kutubxona

oshxona

MAKTAB

maktab hovlisi

sport maydoni

Sinf xonasi va darslardagi kamchiliklar

darslar

sinfdagи jihozlar

o'qituvchi

o'quvchi

dars jadvali

Darsliklardagi kamchiliklar

darslikda berilgan mavzular

mashq va topshiriqlar

rasm yoki jadvallar

tashqi ko'rinishi



MAKTABIM DIREKTORI BO'LIB QOLSAM...

9. Tasavvur qiling, sizni mакtabga direktor qilib tayinlashdi. Xo'sh, endi qanday yo'l tutasiz? Maktabingiz yaxshi bo'lishi uchun nima ishlar qilasiz? Bu haqida tartib bilan yozing.



MUSTAHKAMLASH



Rasmlarga qarang.



- ① Bu qahramonlarni eslaysizmi?
Ularning qay biri sizda yaxshi taassurot qoldirdi?
- ② Sizningcha, ularning qaysi ishlari to‘g‘ri yoki
noto‘g‘ri bo‘lgan edi?
- ③ Bu qahramonlar qatnashgan hikoyani o‘qib,
qanday xulosa chiqardingiz?



1. Hikoya qahramonlarini ta’riflab, ular haqida bit-tadan gap tuzing.



2. Daftarga **-dosh** qo‘sishimchasi bilan tugaydigan beshta so‘z yozing.



3. Matnni o‘qing. Tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

Maktabimizni “championlar maktabi” de-yishadi chunki bizda sportning suzish kurash gimnastika shaxmat kabi turlari bo‘yicha jahon championlari o‘qiydi

2-BO'LIM

TUG'ILGAN KUNING BILAN!



Rasmlarga qarab savollarga javob bering.



- 1 Rasmlarda nimalar tasvirlangan?
- 2 Tug'ilgan kun qanday kun?
- 3 Bu kunda nimalar sovg'a qilishadi?
- 4 Sizning tug'ilgan kuningiz qachon?
- 5 Sizga nima sovg'a qilishlarini istaysiz?



1. Daftardagi mashqlarni bajaring.



SHARIKNING TUG'ILGAN KUNI

1-qism

Kuz yaqinlashib qolgan edi. Barglar sarg'ayib, suvlar sovib, chug'urchuqlar "majlis" o'tkaza boshlagandi. Shunday kunlarning birida Sharik:

– Mening tug'ilgan kunim qachon? – deb qoldi.


Hamma o'ylanib qoldi.
To'g'ri-da, taqvimda
Neftchilar kuni bor, Qu-
ruvchilar kuni bor, hatto
Qushlar kuni bor, Itlar
kuni esa yo'q.

- Buning nimasini o'y-
laymiz? – dedi Matroskin.
- Sen o'zing yildagi eng yaxshi kun 30-sentyabr,
chunki shu kuni ov mavsumi ochiladi, deganding.
Ana shu kun sening tug'ilgan kuning bo'la qolsin.
- Ammo ba'zan ov mavsumini bekor ham qilishadi,
– dedi Sharik.
- Hechqisi yo'q, – dedi Matroskin. – Biz sening
tug'ilgan kuningni hech qachon bekor qilmaymiz.
- Bugun qaysi sana? – so'radi Sharik.
- Hozir avgust tugayapti, – javob berdi Fyodor
amaki (Fyodor amaki aslida bola, lekin juda aqli va
pishiq bo'lganidan uni shunday chaqirishadi).

Sharik taqvimga qaradi:



28



– Voybo'y! Hali qancha
kutish kerak ekan!

Ammo boshqa iloji
yo'q Sharik rozi bo'ldi...

Bu orada sentyabr ham
boshsanib qoldi. Fyodor
amaki bilan Matroskin
sovga haqida o'lay
boslashdi.

Eduard Uspenskiy



- 1 Sharik: "Mening tug'ilgan kunim qachon?" – deb so'raganida yilning qaysi fasli edi?
- 2 Neftchilar kuni, Quruvchilar kunda kimlar bayram qiladi deb o'ylaysiz? Siz shunga o'xshash boshqa bayramni bilasizmi?
- 3 Matroskin Sharikka: "30-sentyabrni tug'ilgan kun qilaver", deb aytdi. U nima uchun bu kunni taklif qildi?
- 4 "Ov mavsumi" nima?
- 5 Fyodor amaki kim?



"Sharikning tug'ilgan kuni" hikoyasining 2-qismini eshititing.



Rasmlarga qarab Matroskin va Fyodor amaki Sharikka nima sovg'a qilmoqchi bo'lishgani haqida gapirib bering.



- 1 Burgaga qarshi bo'yinbog' nima uchun "haqoratli sovg'a" edi?
- 2 Nima uchun Matroskin Sharikdan: "Ko'p pul topib olsang, nima qilarding?" – deb so'radi?
- 3 Sharik pul topib olsa, nima sotib olgan bo'lardi?
- 4 Nima uchun Matroskinning Sharikka pul sovg'a qilgisi keldi?
- 5 Fyodor amaki nima uchun pul sovg'a qilishni xohlamadi?
- 6 Sharikning do'sti bo'lganiningizda unga nima sovg'a qilardingiz? Bu sovg'a Sharik uchun foydalimi?





2. Daftardagi mashqlarni bajaring.



SHARIKNING TUG'ILGAN KUNI

3-qism



Keyin shunday qila qolishdi – pirog pishirib, ustiga sham o'rniغا suyak qo'yib chiqishdi. Faqat nechta suyak qo'yish kerakligini bilishmadi – beshtami, o'n beshtami...

O'ylab-o'ylab, uchta suyak qo'yishga qaror qilishdi,

chunki uch yosh – juda itlarbop yosh!

Dasturxon atrofiga o'tirishgan ham edi, Fyodor amakining ota-onasi kelib qoldi.

– Qadrdonimiz Sharik, tabriklaymiz!

Fyodor amakining oyisi zich tishli temir taroq sovg'a qildi – undan birorta burga qochib qu-tulolmaydi. Otasi esa uchta medalli bo'yinbog' berdi. Bu medallar unga bobosidan meros edi.

Ularda: "Cho'kayotganlarni qutqargani uchun", "Baliq xo'jaligi faxriysiga", "Traktoreksport"ning 25 yilligiga" deb yozilgan edi...

Sharik bu medalli bo'yinbog' bilan faxrlanardi, uni bayramlarda taqardi.

Eduard Uspenskiy





- ① Matroskin va Fyodor amaki Sharikka nima sovg'a qilishdi?
- ② Tug'ilgan kunga yana kimlar keldi?
- ③ Fyodor amakining oyisi Sharikka nima sovg'a qildi?
- ④ Fyodor amakining dadasi Sharikka nima sovg'a qildi?
- ⑤ Bo'yinbog'dagi medallarga nima deb yozilgan edi?
- ⑥ Sizningcha, berilgan sovg'alardan qaysi biri Sharik uchun ko'proq foydali edi?



ENG YAXSHI SOVG'A

O'n yoshga to'ldi bugun
Kenjatoy ukam To'lan.
Do'stlari qutlar uni
Tug'ilgan kuni bilan.

Alisher kitob berdi,
Surati rangli nuqul.
Nor sovg'a qildi koptok,
Bahodir bir dasta gul.

Gullarni quchib ukam,
Shodlanar to'ymay ko'zi,
Do'stimga deb Bahodir
O'stirgan ekan o'zi.



Abdurahmon Akbar



3. Daftardagi mashqni bajaring.




- 1 Kimning tug'ilgan kuni edi?
- 2 U necha yoshga to'ldi?
- 3 Alisher To'langa qanaqa kitob sovg'a qildi?
- 4 Nor nima sovg'a qildi? Bahodir-chi?
- 5 To'lan qaysi sovg'adan eng ko'p xursand bo'ldi?
Nima uchun?



Tabriknomalarni o'qing.





- 1 Tabriknomalar qaysi bayram uchun yozilgan?
Buni qanday bildingiz?
- 2 Kimning tug‘ilgan kuni ekanini matndan qanday bilish mumkin?
- 3 Tabriknomani kim yozganini-chi?
- 4 Tabriknomalarda qanday tilaklar yozilgan?
Ular bir-biriga o‘xshaydimi?



4. Tabriknoma matnini to‘ldiring.



Yaqin o‘rtog‘ingizning tug‘ilgan kunida sovg‘a qilish uchun tabrik xati tayyorlang. Uni rasmlar yoki aplikatsiyalar bilan bezating.




Tabriknoma matnida tabriklanayotgan kishi ismidan so‘ng ko‘pincha **undov belgisi** qo‘yiladi.

Masalan: Qadrli do‘stim Hasan!

MUSTAHKAMLASH



Fyodor amaki haqidagi matnni o'qing.



Bir ota-onaning o'g'li bor edi. Uni Fyodor amaki deyishardi. Nimaga desangiz, u juda bama-ni, o'zini-o'zi eplaydigan pishiq-puxta bola edi. Fyodor amaki to'rt yoshida kitob o'qishni o'rganib oldi, olti yoshida esa sho'rvasini o'zi qaynatib ichadigan bo'ldi. Xullas, u juda yaxshi bola edi. Ota-onasi ham yaxshi odamlar edi. Yaxshilikka hammasi yaxshi edi-yu, faqat bitta chatog'i bor edi: hayvonlarni ayasining jini suymasdi. Ayniqsa, mushukni ko'rarga ko'zi yo'q edi. Fyodor amaki bo'lsa, aksincha, jonivorlarni yaxshi ko'rardi. Shu sababdan oyisi bilan ko'pincha chiqisholmas, tez-tez g'ijillashib turar edi.



Matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering.

- 1 Biz kimlarni "amaki" deymiz?
- 2 Fyodor amakini nima uchun bola bo'lsa ham "amaki" deyishadi?
- 3 Odatda bolalar necha yoshda o'qishni o'rganadilar? Sho'rva pishirishni-chi?
- 4 Fyodor amaki bu narsalarni boshqa bolalardan erta o'rganganmi yo kechmi?
- 5 Fyodor amakining ota-onasi qanday odamlar edi?
- 6 Fyodor amaki nima uchun oyisi bilan chiqisholmasdi?

2-BO'LIM

MENING MAHALLAM



Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



- 1 Ayting-chi, bu rasmlarda qayer tasvirlangan?
- 2 Sizningcha, bu rasmlarni nima bog'lab turibdi?
- 3 Rasmdagi qaysi joy sizga yoqdi? Nima uchun?
- 4 Berilgan rasmlardan qaysi biri siz yashab turgan joyga o'xshayapti?



1. Sizningcha, qo'shnichilikda qanday qoidalar bor?
Misollar yozing.

Namuna: Kasal bo'lsa, xabar olinadi.



2. Mahalla bilan bog'liq so'zlarni topib yozing.



35



"Hashar – elga yarashar" audiomatnini tinglang.



- 1 Mahalla ahli deganda kimlar nazarda tutiladi?
- 2 Mahallada kimlarning ahvoldidan xabar olinar ekan? Nima uchun?
- 3 Hashar nima? U qaysi bayramlardan oldin o'tkaziladi? Hasharda nimalar qilinar ekan?
- 4 "Hashar ko'ngilli tadbir" deganda nimani tushundingiz?
- 5 Sizning mahallangizda ham hashar bo'lib turadimi?



Quyidagi gaplarda qanday farqni ko'ryapsiz?

Qiynalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar.

Qiynalganlarga yordam berishni o'z burchlari deb biladilar.

Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek qo'lni qo'lga berib mehnat qilamiz.

Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek birgalikda mehnat qilamiz.

Ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi.

Juda xursand bo'lamiz.



3. Xatosiz yozilgan gaplarni aniqlang.



KIMNI QO'SHNI DEYMIZ?

Bobo: – O'g'lim, qo'shnimiz Farida xolanikiga chiqib, uy ishlariga yordamlashdingmi?

Temur: – Bobojon, ko'cha boshidagi Abdullohning buvisini aytapsizmi? Uylari uzoqda-ku, ularni ham qo'shni deymizmi?

Bobo: – O'g'lim, uyimizning oldi tarafidagi qirq hovli, orqa tarafidagi qirq hovli, chap tarafidagi qirq hovli, o'ng tarafidagi qirq hovlining hammasi bizga qo'shni hisoblanadi.

Temur: – Voybo'o'...

Bobo: – Unutma, hozir ham, katta bo'lganingda ham mahalladoshlaring bilan ahil bo'l. Ularga yaxshilik qilishdan qochma!

Temur: – Albatta shunday qilaman!



Kamola Sodiq qizi



- 1 Kimlarni qo'shni deymiz?
- 2 Temurning bobosi aytgan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?
- 3 Mahalladoshlar bilan ahil bo'lish uchun nima qilish kerak?
- 4 Mahallangizdagi odamlarga qanday yaxshilik qilishingiz mumkin?



Partadoshingiz bilan biringiz bobo, biringiz bola bo'lib dialogni qayta o'qing. So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qiling.



4. Mahalladagi qo'shnilaringiz bir-biri bilan uchrasib qolganda eng ko'p qanday so'z yoki gaplarni ishlatadi? Yodingizda qolganlarini yozing.

Namuna: Assalomu alaykum...



Ikki ustunda berilgan matnlarni diqqat bilan o'qing.

Mahallamiz nomi – Sari-osiyo. **Sariosiyo nomi**, bobomning aytishlaricha, “tegirmonboshi” degan ma'noni bildirar ekan.

Mahallamiz nomi – Sari-osiyo. **Bu nom**, bobomning aytishlaricha, “tegirmonboshi” degan ma'noni bildirar ekan.

Men mahallamizdagi **Abu Rayhon Beruniy ko'chasi-da** yashayman. Abu Rayhon Beruniy ko'chasidan keyingi ko'cha Xo'jamurod baxshi deb nomlanadi. **Xo'jamurod baxshi ko'chasingining** nomlanishi mahallamizda yashab o'tgan bir baxshi bilan bog'liq.

Men mahallamizdagi Abu Rayhon Beruniy ko'chasi-da yashayman. **Undan** keyingi ko'cha Xo'jamurod Baxshi deb nomlanadi. **Bu ko'chaning** nomlanishi mahallamizda yashab o'tgan bir baxshi bilan bog'liq.



- 1 Sizningcha, qaysi ustundagi matn to'g'ri?
Nima uchun?
- 2 Matnlardagi qaysi so'zlar almashgan?
- 3 Qayer?, qayerda? so'roqlariga qaysi so'zlar javob bo'lyapti?
- 4 Joy nomlari qanday yozilishi kerak?



5. Takror ishlataladigan so'zlarni boshqasiga almashtirib, gaplarni ko'chiring.



Matnda bir xil so'z yoki jumlani qayta-qayta takrorlamaslik uchun **u, bu, shu** kabi so'zlardan foydalanamiz.






MAHALLA – OTA-ONA

Mahalla – ota-on,
Har qo'shni qilar **ta'na**.
Bittasi der: – Yurma kir,
Bittasi der: – Uyga kir.

Yurardim **dilim vayron**,
Endi bir holga hayron
Bo'lib turibman shu tob,
Uch kun yotibman betob.

Ota-onam singari
Shu qo'shnilarning bari
Mendan olmoqda xabar
Ba'zan kirib **barobar**.



Biri keltirib meva,
Deydi: – Yemayman dema!
Biri der: – Ranging **somon**,
Yeb olgin **tansiq** taom.

Biri berib o'yinchoq,
Mening vaqtim qilar **chog'**.

Biri keltirib dori,
Der: "Yaxshimi ahvoli?"

Qo'shnilar borligi, rost,
Ekan juda, juda **soz**.

To'g'ri so'z deyman yana:
Mahallang – ota-on.

Kavsar Turdiyeva



- 1 Qo'shnilar qahramonga nima deb tanbeh berishar ekan?
- 2 Ayting-chi, qo'shnilar nimaga betob bo'lgan bola holidan xabar olishdi?
- 3 She'rdagi qahramonning: "Mahallang – ota-onang", degan fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun?
- 4 Sizningcha, she'rning bosh qahramoni kim? U qanday bola?



She'rdagi qahramon kasallikdan tuzalgach, mahal-lada o'zini qanday tutgan deb o'ylaysiz? She'rni davom ettiring.



6. She'rdagi ajratilgan so'zlarni izohi bilan moslab ko'chiring.

xato va kamchilikni aytmoq

xursand

bir vaqtda, teng

o'ynay olmayman

sarg'aygan

kam tayyorlanadigan

yaxshi

qattiq xafa bo'lib



Audiomatnni tinglang. Joy nomlarini to'g'ri belgilang.

1. Bekat

5. Oziq-ovqat do'koni

2. Dorixona

6. O'yinchoqlar do'koni

3. Bolalar bog'chasi


7. To'rt qavatli uylar

4. Sartaroshxona

8. Sport maydoni



Mahalla yoki ko'chalarga **atab qo'yilgan nomlar** bosh harf bilan yoziladi.
Masalan: Chorbog' mahallasi.



7. O'zingiz yashayotgan mahalla haqida matn tuzing.
Quyidagi rejalardan foydalanishingiz mumkin.

1-reja
Bu – mening mahallam

- a) mahalla-nbiz nomi;
- b) joylashgan o'rni;
- c) bino va ko'chalar.

2-reja
Mahallam tarixi

- a) mahallangiz nomi va ma'nosi;
- b) mahalladagi odamlar;
- c) urf-odatlar.

3-reja
Mahalladosh o'rtoqlarim

- a) ismlari;
- b) ularning fe'l-atvori;
- c) eng yoqtirigan o'rtoq'ingiz;
- d) yoqtirishingiz sababi.

MUSTAHKAMLASH



Berilgan so‘zlarni ma’nosini bilan moslab o‘qing.

hashar

bir qancha oila jam bo‘lgan hudud

uy

uylar va imoratlar joylashgan yo‘l

**o‘yin
maydonchasi**

hamma birgalikda bajaradigan ish

mahalla

har bir oila uchun alohida boshpana

ko‘cha

bolalar o‘ynaydigan joy



1. “Mahallam bo‘ylab sayohat” mavzusida partadoshingiz bilan dialog tuzing. Biringiz mehmon, biringiz mezbon bo‘ling. Dialogda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor qarating:

- ✓ mahallangiz nomi;
- ✓ mahallangizda joylashgan binolar;
- ✓ mahallangizdagi odamlar;
- ✓ yon qo‘snilaringiz;
- ✓ mehmonni taklif qiladigan joylaringiz.



Quyidagi maqollarni davom ettiring.

Bir bolaga yetti qo‘sni –

Yon qo‘sni –

Qo‘sning yomon bo‘lsa, yomonlik kelar,

Qo‘sning yaxshi bo‘lsa – ... kelar.

Hashar – elga

Oila tinch –

Hovli olma, ... ol.



3-BO'LIM

QISHDA UXLAYDIGAN HAYVONLAR



Rasmga qarang. Savollarga javob bering.



- 1 Qaysi hayvonlarni ko'ryapsiz? Ularga ta'rif bering.
- 2 Qaysi hayvonlar qishda uxmlaydi?
- 3 Nima deb o'ylaysiz, ular nega uyquga ketadi?
- 4 Qishda uxmlamaydigan hayvonlar nimalar bilan oziqlanadi?
- 5 Sizga qaysi hayvon ko'proq yoqadi?



1. Qishda uxmlaydigan hayvonlarning nomini bo'g'inga ajratib ko'chiring.

Namuna: yum-ron-qo-ziq.



**“Qo'ng'ir ayiq”
audiomatnini tinglang.**



43



- 1 Qo'ng'ir ayiqlar qaysi hududlarda yashaydi?
- 2 Ayiqlar nega qirilib ketmoqda?
- 3 Qo'ng'ir ayiqning bo'yи qancha? Og'irligi-chi?
- 4 U nima bilan oziqlanadi?
- 5 Ayiqlar qachondan qishki uyquga ketadi?
- 6 Urg'ochi ayiqlar qaysi oylarda bolalaydi?
- 7 O'zbekiston hududida taxminan nechta qo'ng'ir ayiq yashaydi?



2. Nuqtalar o'rniغا berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Kerakli so'zlar: ayiqlar, hayvonot bog'i, uya, uy hayvonlari, qo'riqxona, sirk.



QISH RO'MOLI

Hademay qor yog'adi. Buni menga buvim aytdi. Odatda, izg'irin shamoldan so'ng qor yog'arkan.

Menimcha, qor yog'ishini buvimdan boshqalar ham biladi. Mana, yer hamsovqotib qolmaslik uchun o'ranib olgan. **Kuzgi xazonlar yerning ko'r-pasiga aylangan.**



Ana tipratikan! **Ohista odimlab boryapti.** Bir dumalab barglardan o'ziga soyabon yasab olganini-chi! Tag'in bu ishidan quvonib atrofga qarab qo'yadi-ya! Hoynahoy, u ham bugun so'nggi bor tashqariga

chiqqan. Qornini yaxshilab to‘ydirib olmoqchiga o‘xshaydi. So‘ng iniga qaytib, uyquga ketadi. Bahor kelib, **tabiat yashil libosini kiymagunicha** uyqudan turmaydi.

Endi etik kiyib ko‘chaga chiqaman. Bu sovuqda oyog‘imning uchlari muzlayapti.

Shular haqida o‘ylab borar ekanman, **qor ham asta uchqunlay boshladi**.

Ostona hatlab uyga kirishim hamon buvim ro‘molining uchi bilan yuzimni artdi. Oshxona tarafdan oyim kelib, meni bag‘riga bosdi. Keyin oyog‘imni kaftlari orasiga olib isitdi.

– Qachon qor yog‘adi, deb **holi-jonimizga qo‘ymayotgan eding**. Mana senga qor, – dedi oyim jilmayib.

– Ha, tez orada **butun borliq qishning oppoq va qalin ro‘moliga o‘ranadi**, – dedi buvim.

Rosti, buvimning gapiga uncha tushunmadim. Lekin ularga savol bergim kelmadi. Chunki endi katta bolaman. Hammasini o‘zim bilib olishim kerak. To‘g‘rimi?

**“Quvnoq qo‘ng‘iroqcha”
to‘plamidan**



- 1 Siz ham qor yog‘ishini intiqlik bilan kutasizmi? Nima uchun?
- 2 Hikoyani kim aytib beryapti? Sizningcha, u qiz bolami, o‘g‘il bolami?
- 3 Hikoyani so‘zlab berayotgan bola (yoki qizni) qahramon deya olamizmi? Nima uchun?
- 4 “Kuzgi xazonlar yerning ko‘rpasiga aylangan” deganda nimani tushundingiz?



- 5 Tipratikan qanday harakat qildi?
- 6 Sizningcha, tipratikan rostdan ham shunday harakat qilganmi yoki hikoya qahramoniga shunday tuyulganmi?
- 7 Nima deb o'ylaysiz, ajratib ko'rsatilgan qismlar bo'lmasa ham hikoya qiziqarli chiqishi mumkinmidi? Nega qahramonimiz voqealarni bunday chiroyli tasvirlashga harakat qildi?



3. “Qish ro‘moli” hikoyasidagi ajratib ko‘rsatilgan qismlarni izohi bilan yozing.

Matn asosida berilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki no-to‘g‘ri ekanini aniqlang.



KIM QANDAY UXLAYDI?

Sen uxlagan chog‘ingda
Yumshoqqina to‘sakda,
Mushukchang yotog‘ingda
Xurrak otar burchakda.

Tunda iting **uy qo‘rib**,
Na yotib, na uxbaydi.
Kunduzlari **o‘y surib**,
Uychasida **mudraydi**.


Musichalar butoqda
Pinak qilsa shu ko‘yi,
Ayiropolvon **ovloqda**
Tush ko‘radi qish bo‘yi.



Gul bag'rida kapalak
Mizg'iganda yozilib,
Xilvatda ko'rshapalak
 Uxlar shiftga osilib.

Qurtlar pilla so'rida
 Orom olsa besh mahal,
 Qushlar qo'noq, mo'rida
 Dam oladi galma-gal.

Mayliga, kim bo'lmasin,
 Umri bo'lsin ziyoda,
 Uyqusi buzilmasin,
 Tinchlik bo'lsin dunyoda.



Xudoyberdi Komilov



She'r dan uqlashni ifodalaydigan so'zlarni aniqlang.



4. Ko'rshapalak, musicha, qurtlar, it, ayiqpolvon, mushuk, qushlar qanday holatda uqlashini she'r dan aniqlab, yozing.



"Kim qanday uqlaydi?" she'ridagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni izohlang.




Maqollarni o'qing. Ma'nosini tushuntiring.

1 Arslon izidan qaytmas,
 Yigit – so'zidan.

2 Tulkinining hiylasi ko'p,
 yaxshisi – qochmoq.

3 Bo'ringning o'zi to'ysa ham,
 ko'zi to'ymas.

4 Echki yugurib
 kiyik bo'lolmas.



- 1 Ayting-chi, bu maqollarning odamlar hayoti bilan qanday o'xshashligi bor?
- 2 Qanday odamni arslon yoki tulkiga qiyoslash mumkin?
- 3 Siz ham shu kabi maqollarni bilasizmi?



Hayvonlarning nomi bildirgan qo'shimcha ma'nolarni bilib oling.



Tulki – ayyor



Ilon – yovuz, ayyor




Sher – kuchli, jasur



Ot – ziyrak



To'tiqush – mahmadona, sergap



Eshak – ahmoq




Ayiq – polvon, bahaybat



Qo'y – yuvosh

It – vafodor



Tuya – sabrli, chidamli



Toshbaqa – imillagan, sekin



Odam, hayvon yoki narsalarga xos sifatlarini aniqlash uchun qanday? yoki qanaqa? so'rog'ini beramiz.

Masalan: ayyor tulki (qanday tulki?)



5. Hayvonlar ta'riflangan namunadagidek gaplar tuzing va yozing.

Namuna: O'rmonda qo'rqmas sher yashar edi.



6. "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob hayvonlar bilan tanishing. Ulardan biri haqida hikoya yozing.



Ko'k sug'ur



Tipratikan

Yashash joyi:
o'tloqlar.

Yashash tarzi:
martdan avgustgacha faol kun kechiradi. May oyida bolalaydi. Oktyabrdan martgacha inida qishlaydi.

Oziqlanishi:
o't-o'lanlar, chuvalchang va hasharotlar.

Qo'ng'ir ayiq

Yashash joyi:
tog'li hududlar.

Yashash tarzi:
mart oyidan oktyabr oyigacha faol kun kechiradi. Yanvar oyida bolalaydi. Oktyabrdan martgacha inida qishlaydi.

Oziqlanishi:
mevalar, baliq va hasharotlar.

Yashash joyi:
tekisliklar, dalalar.

Yashash tarzi:
mart oyidan oktyabr oyigacha faol kun kechiradi. Tunda inidan chiqadi. May oyida bolalaydi. Oktyabrdan martgacha inida qishlaydi.

Oziqlanishi:
hasharotlar, tuxum va sichqonlar.

MUSTAHKAMLASH



1. Hayvonlarning nomini bo'g'inlarga ajratib yozing.



2. Hayvonlarning nomi bildiradigan qo'shimcha ma'nolarni topib yozing.

Tulki, sher, ilon, ot, eshak, to'tiqush, ayiq, qo'y, toshbaqa, tuya, it.

Namuna: tulki – ayyor.



3. Bo'g'lnarni yig'ib, imkon qadar ko'proq so'z tu-zing.




3-BO'LIM

YER OSTIDA NIMA BOR?




Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Ular qanday rangda ekanini ayting.



1




2



3



4



5



6



7



8



1. Tabiiy qazilma boyliklarni berilgan so'zlar bilan moslang.



2. O'zingiz yaxshi bilgan qazilmaning xususiyati ha-qida gap tuzing.



Ma'lumotlarni tinglang.



51



- 1 Dunyodagi eng katta oltin koni qaysi?
- 2 Bu konni qayerdan ko'rish mumkin?
Siz bunga ishonasizmi?
- 3 Bu kon qayerda joylashgan?
- 4 Tog' rudasi qanday bo'ladi?
- 5 Oltin qanday kazib olinar ekan?
- 6 Sizningcha, oltin zaxirasi nima?
- 7 Zamonaviy qurilmalar qanday bo'ladi?
- 8 Sizningcha, oltin nima uchun kazib olinadi?




3. Jadvalni to'ldiring.



QORA OLTIN

A

Qadim zamonda odamlar suv qidirib quduq qazishgan. Bir gal ana shunday quduq tubidan suv emas, qop-qora moy chiqib qolibdi. Bu g'alati suyuqlikning nima ekanini bilmagan odamlar unga "qora moy" deb nom berishibdi. Keyinchalik, quruvchilar uni loy va toshga aralashtirsa, mustahkam qorishma yuzaga kelishini bilib olishgan. Qadimda hozirgiday elektr chiroqlari bo'limgani uchun ko'chalar mash'alalar yordamida yoritilgan. Bunda ham juda yaxshi yonadigan "qora moy"dan foydalanilgan.




B

Bugun bu mahsulotni neft deb atashadi. Agar neft bo'lmasa, mashinalar, avtobuslar yurmaydi, samolyotlar esa uchmay qo'yadi. Chunki ularning ishlashi uchun zarur bo'lgan yonilg'i neftdan olinadi-da. Bundan tashqari neftdan plastmassa, sun'iy ip, atir, tish pastalari, sham, kir yuvish vositalari, tibbiyotda ishlataladigan vazelin va yana bir qancha mahsulotlar olinadi. Juda ko'p sohalarda foyda keltirgani uchun ham uni "qora oltin" deyishadi.

D

Neft odatda 1500–2000 metr chuqurlikda bo'ladi. Olimlarning aytishicha, neft yer ostida xuddi dengiz va daryolardek oqib turar ekan. Neft chiqarish uchun uzun temir quvurlar kerak bo'ladi. Quvurning bir uchi "neft daryosi"ga yetib borgunicha yerga qoziqday qoqliladi. Quvur "manzil"ga yetib borgach, bu joydan yillar davomida qora oltin olinadi.

**E**

O'zbekiston neft qazib oluvchi davlatlar sira-siga kiradi. Yurtimizdagi ilk neft koni 1876-yili Farg'ona viloyatining Qamishboshi qishlog'idan topilgan. Hozir O'zbekistonda neft olinadigan quduqlar bilan birga uni qayta ishlovchi zavodlar ham bor.





- 1 Odamlar “qora oltin”ni qanday topishgan?
- 2 Nima uchun yer ostidan topilgan suyuqlikka “qora moy” deb nom berishgan?
- 3 Bugungi kunda bu mahsulotni qanday atashadi?
- 4 Neftdan nimalar ishlab chiqarishda foydalaniladi?
- 5 Neft qanday qazib olinadi?
- 6 Yurtimizdagi ilk neft koni qayerda aniqlangan?




4. Matn qismlariga mos sarlavhalar tanlab yozing:

D. O’zbekiston – neft qazib oluvchi davlatlardan biri.



5. “Qora oltin” matni asosida neftdan olinadigan mahsulotlar nomini yozing.



Narsalarning nomini bildiruvchi so’zlarga
nima? yoki nimalar? deb savol beramiz.
Masalan: nima? – oltin, nimalar? – boyliklar.



6. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.



Ayting-chi, geolog kim?

GEOLOG SO'ZI

Yerning osti ham shundoq –
O'rganishga ko'p mushtoq.
Nima bor yer ostida –
Bilmoq shart yer ustida.

Tog'-u dashtni kezamiz,
Ne borligin sezamiz.
Go'yo toshlar ham kitob,
O'qish kerak bobma-bob...



Yer tagini ovlaymiz.
Kezi kelsa, kovlaymiz.
Zar gilam – zargar gilam,
Yer ostida bor olam.

Bag'rida ming turli kon
Saqlab kelmoqda hamon.
Eh, behisob tilsimlar:
“Qani, qani, kelsinlar”, –

Deya bizni kutmoqda,
Xazinasin tutmoqda.
Qaytmasdan izimizga,
Olurmiz izmimizга.


Po'lat Mo'min



- 1 Yer ostini nima uchun o'rganamiz?
- 2 Toshni o'qib bo'ladimi? Qanday qilib?
- 3 "Yer tagini ovlaymiz" deganda nimani tushundingiz? O'zi nimalarni ovlash mumkin?
- 4 Yer ostida qanday olam bo'lishi mumkin?
- 5 Yer nimaga o'xshatilyapti?
- 6 "Olurmiz izmimizga" qatoridagi **izm** nima?




Quyidagi rasmlarning she'r matni bilan aloqadorligini aniqlang. She'rdan shu satrlarni toping va qayta o'qing.



7. She'r asosida jadvaldagi qismlarni moslashtiring.

Xarita bilan tanishing.





8. Xaritadan foydalanib viloyatlarda qanday konlar borligini yozing.



Ayting-chi, yer ostida foydali qazilmalardan tashqari yana nimalar bor? Ma'lumotlar bilan tanishing.

- Yer ostida qazilma boyliklardan tashqari suv ham bor.
- Yomg'ir va qor yerga singib, yerosti suvlarini hosil qiladi.
- Quduqlar qazib, yer ostidan suv chiqarish mumkin.
- Bu suv ichish hamda ekinlarni sug'orish uchun yaroqli.
- Cho'l hududlarida hozirgacha quduqlardan foydalaniladi.





9. Sahrodagi bolalarga yordam berish uchun loyiha yarating.



SAHRODA YANGI QUDUQ (Loyiha)


- Ishni nimadan boshlaysiz?
- Sizga nimalar kerak?
- Loyihangiz amalga oshsa, nimalar o'zgaradi?

MUSTAHKAMLASH



1. Ushbu qazilma boyliklardan nimalar tayyorlanadi?
Ularning nomini yozing.


Temir



Neft



Alyuminiy



2. Ayting-chi, geolog kim?
U haqida yozing.

- ✓ U qayerda ishlaydi?
- ✓ Nima bilan shug'ullanadi?
- ✓ Qanday ish qurollaridan foydalanadi?



3. Berilgan ma'lumotlar asosida foydali qazilmalar dan oqilona foydalanish haqida o'z tavsiyalaringizni yozing.

Ma'lumotlar bilan tanishing.

- ✓ Yer ostida qazilma boyliklar mavjud.
- ✓ Qazilma boyliklarning ko'plab turlari bor.
- ✓ Qazilma boyliklardan hayotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadi.
- ✓ Foydali qazilmalarni kelajak avlodga ham yetkazish lozim.



*Shaxsni bildirgan so'zlarga **kim?** yoki
kimlar? deb so'roq beramiz.*

*Masalan: **kim?** – bola; **kimlar?** – bolalar.*

3-BO'LIM

SAYOHALCHI QUSHLAR



Rasmlarga qarab savollarga javob bering.



- 1 Rasmlarda qanday qushlar tasvirlangan?
- 2 Ular nima qilyapti?
- 3 Ularni yilning barcha faslida ham ko'ramizmi?
- 4 Qaldirg'och qachon keladi? Ungacha u qayerda bo'ladi?
- 5 Qushlar qachon boshqa o'lkalarga uchib ketadi? Nima uchun?



1. Daftardagi mashqni bajaring.



60



Audiomatnni tinglang.



Markazdagi gaplarni o'qing. Savollarga javob bering.

Qushlar rostdan ham
bizni sog'inadimi?

Nima uchun qushlar haqiqiy
jahongashta hisoblanadi?

Buni qarang, qushlar haqiqiy jahongashta ekan. Ular
har yili Afrika, Yevropa mamlakatlari va Rossiya tomon-
larga uchib borib, yana bizni sog'inib qaytib kelishadi.

Yevropa haqida
eshitganmisiz?

Afrika qanday joy?



- 1 Qanday qushlar ko'chmanchi qushlar deb
ataladi?
- 2 Nima uchun qaldirg'ochlar kuzda uchib ketishadi?
- 3 Nima uchun laylak va yovvoyi g'ozlar qish
kelganda uchib ketishadi?





Ma'lumotni o'qing.

Dunyoning to'rt tomoni bor: shimol, janub, sharq, g'arb.

E'tibor bergen bo'lsangiz, quyosh har kuni bir tomonidan chiqadi. Shu tomon sharq bo'ladi. Quyosh botganda ham bir tomonga botadi. Bu tomon g'arb bo'ladi. Sharqqa qarab tursak, chap tomonimiz shimol, o'ng tomonimiz janub bo'ladi. Shimolda havo sovuqroq, janubda esa issiqroq. Janubdagи ayrim mamlakatlarda qish umuman bo'lmaydi.



- 1 Dunyoning nechta tomoni bor?
- 2 Ular nima deb ataladi?
- 3 Quyosh qaysi tomonidan chiqadi?
- 4 Quyosh qaysi tomonga botadi?
- 5 Qaysi tomon sovuqroq?
- 6 Qaysi tomon issiqroq?



2. Daftardagi mashqni bajaring.



Qiziqarli topshiriqni bajaring.


O'qituvchingiz yordamida o'tirgan joyingizda qaysi tomon sharq, qaysi tomon g'arbligini aniqlang.

Endi qaysi tomon shimol, qaysi tomon janubligini toping.





“Sayohatchi qurbaqa” multfilmini tomosha qiling.



- 1 Multfilmda qaysi fasl tasvirlangan?
- 2 Buni qanday bildingiz?
- 3 Multfilmdagi qahramonlarni sanang.
- 4 Asosiy qahramon kim?
- 5 Qurbaqa nima uchun janubga borishni xohladi?
- 6 O‘rdaklar bilan birga uchish uchun u qanday usul o‘ylab topdi?
- 7 U nima uchun janubga yeta olmadi?
- 8 Siz bu voqeadan qanday xulosa chiqardingiz?



3. Daftardagi mashqni bajaring.



Qurbaqa va o‘rdak o‘rtasidagi suhbatni o‘qing.

O‘rdaklar yig‘ilib, uchishga tayyorgarlik ko‘rayotgan payti qurbaqa ularning oldiga keldi.

Qurbaqa: – Noo‘rin savolim uchun kechirasizlar-u, mana, sizlar janub deyapsiz. Janub o‘zi qanaqa joy?

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Janub bu – jannatni eslataligan o‘lka.



Qurbaqa: – U yerda botqoq bormi?

Yo‘lboshchi o‘rdak:

– Bor bo‘lganda-chi!
Juda katta, ulkan, iliq
botqoqlar bor.

Qurbaqa: – Pashshalar
ham bormi?

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Nihoyatda ko‘p!

Qurbaqa: – Chivinlar-chi?

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Men sizga aytdim-ku, u o‘lkaning o‘xhashi yo‘q deb. Agar unda chuvalchanglar, pashsha va chivinlar bo‘lmasa, nima qilib maqtab o‘tiribman?! Biz ketishimiz kerak. Mayli, xayr.

Qurbaqa: – Meni ham o‘zingiz bilan olib keting!

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Qanotlaring yo‘q-ku?!

Qurbaqa: – Ammo zo‘r fikrim bor.

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Fikr? Yana qanaqa fikr?!

Qurbaqa: – Men uchun qanot bo‘ladigan fikr! Ikkita o‘rdak cho‘pning ikki chetini ushlaydi. Men cho‘pni tishlayman-da, keyin uchalamiz baravar parvoz qilamiz. To‘g‘rirog‘i, siz uchasiz, men esa tomosha qilib ketaman. Xo‘pmi?

Yo‘lboshchi o‘rdak: – Ajoyib fikr! Qanday kashfiyat!





- 1 Qurbaqa o'rdakka gapiroshdan oldin nima uchun
uzr so'radi?
- 2 Qurbaqa nima uchun: "Menga qanot
bo'ladi", – dedi?
- 3 Sizningcha, qurbaqaning fikri kashfiyot
hisoblanadimi?



4. Daftardagi mashqni bajaring.



She'rni o'qing. Undagi qushlar nomini yozing.

QANOTLI DO'STLAR

Uchib kelar har yoqdan
qadrdon qushlar,
Ko'chib kelar yiroqdan
mehribon qushlar.
Sog'inganmiz, kelinglar,
ko'zlari munchoq.
Uchqur, botir zarg'aldoq,
kuychi qarqunoq.
Tiniq ko'kda laylaklar
yozishar qanot,
Qaldirg'och, maynajonlar –
jajji samolyot.
Bog'da konsert boshlanar:
dirijor laylak,
Tumshug'i qo'sh nog'ora,
chalar sho'x "tak-tak".
O'yin tushdi dikillab
chittak, shox tashlab.
Avjga chiqdi rosa ham
uchib, irg'ishlab.





Bulbul bilan qaldirg'och
oldi jo'r nayin.
Ku-ku-kulab musicha
tortdi surnayin.
Qizilishton osilib
xivichda dorboz.
Ko'kda solib arg'imchoq,
uchar turna, g'oz.
Masxaraboz popishak –
parovoz – "pup-pup".
Konsert juda qizidi,
qushchalar to'p-to'p.
Uchib kelar har yoqdan
qadrdon qushlar,
Ko'chib kelar yiroqdan
mehribon qushlar.

Quddus Muhammadiy



Rasmdagi musiqa asboblarining nomini she'rdan toping.



- Nima deb o'ylaysiz, shoir bu cholg'u asboblarini ne-ga aynan u yoki bu qushni tasvirlashda ishlatgan?
- She'nda qo'llangan harakatni bildiruvchi so'zlarni topib ayting.



Harakatni ifodalovchi so'zlarga **nima qildi?** **nima qilyapti?** **nima qilmoqchi?** kabi so'roqlarni beramiz.
Masalan: **nima qildi?** – uchib keldi.



5. Daftardagi mashqni bajaring.



Laylaklar – uzun oyoqli qushlar turkumiga kiradi. Oq laylakning tumshug'i va oyoqlari qizil, pati oq, qanot patlari qora bo'ladi.



- 1 Bu qanday qush? Rangi qanaqa?
- 2 Tumshug'i qanday? Qanaqa rangda?
- 3 Oyoqlari qanday? Qanaqa rangda?
- 4 Qanotlarining rangi qanaqa?



O'zingiz yoqtirgan qush rasmini chizing.
Chizgan qushingiz ko'rinishini tasvirlab bering.



Uyingizda qaldirg'ochlarni ko'p kuzatganmisiz? Ular haqida nimalarni bilasiz?



6. Rasmlarga qarang. Qaldirg'ochlar hayoti haqida matn tuzing.



MUSTAHKAMLASH



1. Daftardagi mashqni bajaring.

QUSHLAR QISHDA QAYDA QO'NOQLAR?

Ko‘p qushlarning qishda yotar ini yo‘q,
 Patdan boshqa ko‘ylak, kostyum, to‘ni yo‘q.
 Bir xili ochiq daraxt shoxlarida qo‘noqlar,
 Qor-bo‘ronda, sel-yomg‘irda quvnoqlar.
 Sovuq eltib, muzlab to‘ngib qolmasmi?
 Yo ularning joni qattiq olmosmi?
 Yo‘q, qushlarning xillari ko‘p ajoyib,
 Issiq yoqqa ketishar qanot yoyib.
 Qolganlari sovuq, muzdan qo‘rqmaydi,
 Patlariga qor-u yomg‘ir yuqmaydi.
 Chumchuqchalar pir-pir uchar, dikonglab.
 Bo‘rondan ham qo‘rqishmaydi, likonglab.
 Ammo shuni, bolajonlar, unutmang,
 Qor yog‘ganda qushlar holi bo‘lar tang.
 Bari shoshib, don izlashib qolishar,
 Chirqillashib, uchib-qo‘nib nolishar.
 O‘sanda siz qushlarga yordam bering,
 Uvoq seping, ularga inlar quring.
 Rahmat aytib, chig‘illab sayrab berar,
 Qanot qoqib osmonda o‘ynab berar.



Quddus Muhammadiy

- 1 Qaysi qushlar qishda janubga uchib ketmaydi?
- 2 She‘r qanday qushlar haqida?
- 3 Qaysi vaqtida qushlarga qiyin bo‘lar ekan?
- 4 Siz ularga qanday yordam berishingiz mumkin?


4-BO'LIM

BAKTERIYA VA MIKROBLAR



- Nega qo'llarimizni sovunlab yuvishimiz kerak?
- Idishlarni yuvmasdan ishlatsa, nima bo'ladi?
- Nega odamlar tibbiy niqob taqadilar?

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



- 1 Bakteriyalar qayerlarda yashashi mumkin?
- 2 Bakteriyalarni ko'z bilan ko'rish mumkinmi?
- 3 Bakteriyalarni ko'ra olishimiz uchun bizda nima bo'lishi kerak?



1. Mos so'zlar bilan davom ettiring: *yuvilmagan qo'l....*



69



She'rni ifodali o'qing.

MIKROB

Mikrob juda quv, ayyor,
Tayyor turar kir-chirga.
Isqirt bo'lsa kimda-kim,
Darrov olar asirga.

Mikrob har yerda hozir,
O'z ishini biladi.
Hayvonlarga joylashib,
Tekinxo'rlik qiladi.



Tumov, yo'tal, boshog'riq
Azob berar bemorga.
Kim mikrobn ni yuqtirsa,
Jonin qo'yari ozorga.

Bo'lsang toza, ozoda,
Mikrob sendan qochadi.
Kimki yuvinmay yursa,
Unga quchoq ochadi.

Ogden Nesh



2. She'rdagi kasallik nomlarini yozing.



Savollarga javob berganingizda she'rdan o'sha joyni ko'rsating.

- 1 Mikroblar qanday holatda tez yuqar ekan?
- 2 Mikroblar hayvonlarning tanasida ham bo'lishi mumkinmi?
- 3 Mikrob yuqtirib olsak, nima bo'ladi?
- 4 She'rning muallifi kim? Buni qanday bildingiz?
- 5 She'rni yod oling.



She'r, hikoya va shu kabi asarlarni yozgan odam "muallif" deyiladi. Muallifning ismi odatda sarlavhadan keyin yoki asar ostida beriladi.



3. Darslikdagi 4 ta matn (she'r yoki hikoya)ning sarlavhasi hamda muallifini yozing.



"Mikrob" she'rini yoddan ifodali va ravon aytib bering.



4. Sariq ustundagi birliklarni yashil ustundagi birliklar bilan moslashtiring.



5. She'r matni asosida mikrobgaga xos sifatlarni yozing: **tekinxo'r**,



Hikoya qahramonlari bilan tanishing. Savollarga javob bering.



1 Tohir va Qutlixon qanday vazifani bajarishadi?

2 Qutlixon qanday bosh kiyim kiyib yuradi?

3 Yomontoarning yomonligi nimada?

4 Yovuzvoy bizga qanday zarar keltirishi mumkin?



6. Bular kim? Ismlarini yozing.





Hikoyani o'qing. Savollarga javob bering.

Ushbu vogelar Odam tanasi degan olamda yuz beradi...




Tanamiz millionlab bakteriyalar uchun makon hisoblana-di. Ammo ularni mikroskopsiz ko'rib bo'lmaydi.

Bakteriyalar tanamizga turli taraflardan kirib kelishadi.

Ba'zilari juda kichik suv zarralari tarkibida havo-da suzib yuradi.



Yana bir turi eshik tut-qichi, pul kabi ko'p ush-lanadigan buyumlarga joylashib, shu yo'l bilan boshqa odam tanasiga ko'chib o'tadi.




Boshqalari yegan nar-salarimiz bilan bir-ga ovqat hazm qilish tizimiga tushadi.

Tug'ilganimizdan ikki kun o'tiboq bakteriyalar tanamizga joylashib oladi.




Shu vaqt dan bosh-lab ularning minglab turlari tanamizga ko'chib o'tadi.




Odam tanasi.
Aholi soni:
10 milliard


Bakteriyalar tanamizning turli qismlarida yashashi mumkin.




Yana bir turlari milk-larimizda, tishlarimiz orasida in qurib ol-gan bo'ladi.



Ba'zi bakteriyalar te-
rimizda, yana ba'zili-
ri sochlarmizda, bo-
shimizda yashaydi.




Hatto qovoqlarimizda
yashovchi bakteriya-
lar ham bor.



Tanamizdagi ko'plab bakteriyalar foydali hamda yashashimiz uchun keraklidir.



Bakteriyalar ovqatni hazm qilishda yordam beradi. Tana uchun kerakli vitaminlarni hosil qilish ishlarida qatnashadi.





- 1 Hikoya nima haqida?
- 2 Mikrob va bakteriyalar qayerlarda yashaydi?
- 3 Bakteriyalar tanamizga qanday yo'llar bilan kirishi mumkin?
- 4 Bakteriyalar qaysi tana a'zolarimizda yashashi mumkin?



Quyidagi gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini hikoya matni orqali isbotlang. Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qiling. Ular gap mazmuniga qanday ta'sir qilayotganini tushuntirishga urinib ko'ring.

Pul bakteriya va mikroblarni tashiy oladi.	To'g'ri Noto'g'ri
Bakteriyalarni mikroskopsiz ko'rish mumkin emas, chunki ular juda uzoqda joylashgan.	To'g'ri Noto'g'ri
Eng ko'p bakteriya ichaklarimizda yashaydi.	To'g'ri Noto'g'ri
K vitamini suyaklar uchun foydali, ammo qon uchun zararli.	To'g'ri Noto'g'ri
Bakteriyalar inson uchun foydali, lekin hammasi ham emas.	To'g'ri Noto'g'ri



7. Bo'sh o'rnlarni to'ldiring. **Chunki, ammo, lekin so'zlaridan foydalaning.**





Hikoyaning davomini rollarga bo'lingan holda o'qing.

Shahrimizning qahramonlari bilan tanishing. Ular zararli bakteriyalar tanamizga joylashib olishiga yo'l qo'ymaydi.



Kasal odam niqob taqmasa, yo'talganida uning og'zidan mayda zarralar otilib chiqadi. Yovuz bakteriyalar esa ularga minib oladi. Ular shu yo'l bilan tanamizga kirib olishlari mumkin.



Buyoqqa
yur,
do'stim!

Shunday qilib, ular
og'iz va tomoqqa joy-
lashib oladilar.



Ular
anginaga
duchor
qiladi.



Nima u
angina?

Xuddi
tomog'ing
ternalganga
o'xshaydi,
qizarib ketadi.
Yutinishga
qiynalasan.


Isitmang
ham chiqishi
mumkin.


Bazan zararli bakteriyalar nazoratdan chiqib ketadi. Himoyachilarimizning o'zi ular bilan kurasha olmay qoladi.



76


Ana shunday vaziyatda tanaga bir zo'r qurol yordam beradi. Uning nomi – antibiotik.





Antibiotikli tablet-kalar oshqozon hamda ingichka ichakda turli mod-dalarga parchalanadi. Ana shu moddalar yovuz bakteriyalarni o'ldiradi.

Antibiotik ingichka ichakdagi qon tomirlariga ham o'tadi. Bu qon tomirlari esa butun tana bo'ylab tarqalgan bo'ladi. Antibiotiklar tomirlardagi qon bilan birga butun tanaga tarqaladi.



Mana, antibiotiklar o'z ishini qilmoqda.


Bu yerdan tez-roq qochish kerak!

O'zimni yomon his qilyapman!

Antibiotiklar butun tana bo'ylab tarqaladi, ba'zan bizni yovuzlardan farqlolmay qoladi.



Yovuz bakteriyalar yengildi, biroq juda ko'p foydali bakteriyalar ham nobud bo'lishdi.



Odam tanasida umuman bakteriya qolmadi. Foydalisi ham, zararlisi ham!

Antibiotik tanada 3 kun davomida yashab, uni bakteriyalardan tozaladi.

Yaxshi bakteriyalarning qaytishini tezlatish uchun doktor qatiq yoki yogurt yeyishni maslahat berdi.

Nega qatiq yoki yogurt?

Chunki ular foydali bakteriyalar bilan to'la.

Sekin-asta foydali bakteriyalar qaytib keladi. Bo'shab qolgan tanani yana to'ldira boshlashadi.



Qatiq va boshqa yeguliklar bilan birga foydali bakteriyalarning katta oilasi tanamizga kirib kela boshladi.

Xush kelibsiz!



Tanadagi hayot yana o'z iziga tushib ketdi. Hamma avvalgidek xursand yashay boshladi.

"Bolalar uchun biologiya" kitobidan



- 1 Nega Qutlixon va Tohir begonalarni haydar yubordi?
- 2 Kasal odam nega niqob taqishi kerak?
- 3 Yovuz bakteriyalar tomoqqa qanday qilib o'rashib oladi?
- 4 Angina kasalini qanday aniqlash mumkin?
- 5 Nega Tohir va Qutlixon ham nobud bo'ldi?
- 6 Qatiqning qanday foydasi bor?

8. Hikoyaga mos, chiroyli sarlavha toping.



9. Qaysi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan? Daftaringizga ko‘chirib yozing.

Mikro‘b

Mikroskop

Milyon

Million

Mikrob

Mikrasko‘p



Ba’zi so‘zlar aytilanidek yozilmaydi.
Bunday so‘zlarni mavzular davomida
o‘rganib, yodda saqlab borishingiz
kerak.



Ozodalik qoidalari.

- Mikroblardan himoyalanish uchun qoidalarni ishlab chiqing.
- Qoidalarni qog‘ozga yozib, xonangizga yopishtirib qo‘ying.
- Har bir qoidani nima sababdan joriy qilganingizni tushuntirib bering.



MUSTAHKAMLASH



Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.

mikroskop

bakteriya

mikrob

Ogden Nesh

asir

muallif

vitamin

biotin

million

asr




COVID-19 virusi haqida bilganlaringizni aytib bering.



COVID-19 virusi yoki uning vaksinasi haqida eshitganlaringizni aytib bering. Nutqingizda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

1. Bu qaysi yangilik?
2. Uni qayerdan eshitdingiz yoki o'qidingiz?
3. U yangilikda nimalar deyilgan?
4. Sizga aloqador joyi bormi?



4-BO'LIM

FOYDALI NONUSHTA



Rasmlarga diqqat bilan qarang.



- ① Siz qaysi rasmdagi holatga yaqin ovqatlanasiz?
- ② Qaysi rasmdagi ovqatlanish sizga yoqmad? Nima uchun?
- ③ Ovqatlanishdan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin?
- ④ Rasmlar haqida gapishtan davomida harakatni bildiruvchi so'zlarni qaysi so'zlarni qo'lladingiz?




1. **Ovqatlanish bilan bog'liq harakatni bildiruvchi so'zlarni yozing.**
- Ovqatlangandan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin? Yozing.**





“Mehnatkash choynak” ertagini tinglang.



- 1 Patnis nima uchun temir choynakka havas qilibdi?
- 2 Likop va qozon temir choynakning nimasiga qiziqib qolishibdi?
- 3 Temir choynakni nima uchun omborxonaga tashlashibdi?
- 4 Elektr choynakni nima uchun idish-tovoqlar yoqtirishmadidi?
- 5 Sizningcha, idish-tovoqlar nima uchun temir choynakni oshxonaga qaytarishdi?
- 6 Ayting-chi, “uzunquloq” gap qanday bo’ladi?



2. Gaplarni o’qing. Yo’l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilab, daftaringizga ko‘chiring.

1. hushtakli do‘stimizni yana ko‘rsak edi
2. yaltirashini qara-ya
3. ayting-chi, siz hushtak chala olasizmi
4. oshxonaga olingan yangi temir choynak yaltirab turardi
5. qaniydi, men ham shunday yaltirab tursam
6. shuncha kun choy ichmay bo'larkanmi



3. Yozgan gaplaringizni ohangi va mazmuniga ko'ra ajrating.



NONUSHTAGA “5” BAHO!

▶ Ko‘pchilik bolalar nonushtadan bosh tortishadi. “Qornim to‘yib qoldi”, “Maktabga kech qolaman” kabi bahonalar bilan imkon qadar kamroq ovqat yeyishga harakat qilishadi, amma bu – noto‘g’ri. Bilsangiz, yaxshi nonushta salomatlikning muhim garovidir!



▶ Odatda ota-onalar nonushta tayyor bo‘limguncha farzandlari ni uyg‘otishmaydi. Shuning uchun nonushtaga o‘tirganida bolalarning tanasi hali ham uxbayotgan bo‘ladi. Tanadagi a’zolar o‘z vazifalariga to‘liq kirishib ketishi uchun kamida yarim soat vaqt kerak. Bu holatda siz qorningiz ochganini sezmaysiz. Ertalab ishtahasi bo‘limgan bolaning birinchi dars tugamay qorni ochib qolishi shundan. Shuning uchun biroz ertaroq turishni odat qiling.



Odatda darslarni yaxshi o'zlash-tirmay, ba'zan "2" yoki "3" baho ola-diganlar nonushta qilmay matabga keladiganlardir. Ularning qorni tez ochib qoladi va miyasi o'qituvchining gaplarini tahlil qilmaydi. Chunki bu vaqtda miya och qorin bilan band bo'ladi-da!

Aytganday, uyqudan turgan bolalarning qor-ni ba'zan chindan ham to'q bo'lishi mumkin. Uyqudan oldin to'yib ovqatlangan bolalarda shunday bo'ladi. Bu ikki hissa zarardir! Chun-ki to'q qoringa uqlash ham, nonushta qilmaslik ham oshqozonni kasal qiladi.

Demak, a'luchi va sog'lom bo'lay desangiz, nonushtani aslo qoldirmang. Nonushtada sut mahsulotlari, yong'oq, mayiz va ho'l mevalar-dan ko'p-ko'p yeyishni odat qiling.

"Sog'lomjon" kitobidan



- 1 Nima uchun ko'pchilik bolalar nonushta qilishni xohlashmaydi?
- 2 Erta turishning ishtaha ochilishiga qanday bog'liqligi bor?
- 4 Och qolgan o'quvchining miyasi nima bilan band bo'ladi?
- 5 Oshqozonni qaysi odat kasal qilar ekan?
- 6 Nonushtada nimalarni yeyish mumkin?
- 7 Siz berilgan tavsiyalarga amal qilasizmi?



4. Matn qismlarini berilgan tavsiyalar bilan moslashtiring.



1. “Nonushtaga “5” baho” matnidan olingan quyidagi gapda nima uchun vergul ishlataligani?

Nonushtada sut mahsulotlari, yong'oq, mayiz va ho'l mevalardan ko'p-ko'p yeyishni odat qiling.

2. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qanday ohangda o'qidingiz?



5. Sanash ohangi bilan o'qiladigan gap tuzib, yozing.

Namuna: Nodira choynak, piyola, qoshiq va likopchalarni yuvdi.



Quyidagi gaplarni solishtiring.

Ko'pchilik bolalar nonush-tadan bosh tortishadi.




Ko'pchilik bolalar nonushta qilishni xohlasmaydi.



Bilsangiz, yaxshi nonushta salomatlikning muhim garovidir!

Bilsangiz, yaxshi nonushta salomatlik uchun foydalidir.

Chunki bu vaqtda miya och qorin bilan band bo'ladi-da!



Chunki bu vaqtda miya och qoringa e'tibor qaratadi.



1-ustundagi gaplarni 2-ustundagi gaplarga bog'lab o'qing.

"Qornim to'yib qoldi",
"Maktabga kech qolaman"
kabi bahonalar bilan imkon
qadar kamroq ovqat yeyishga
harakat qilishadi,

ularning miyasi
o'qituvchining
gaplarini tahlil
qilmaydi.

Odatda ota-onalar
nonushta tayyor bo'l-
maguncha farzandlarini
uyg'otishmaydi,

Bunday bolalarning
qorni tez ochib qoladi

va

ammo

bu noto'g'ri.

shuning
uchun

nonushtaga o'tirgan
bolalarning tanasi
hali ham uxlayotgan
bo'ladi.



Ikkita ustundagi gaplar alohida-alohida o'qiganingizda mazmun bildiryaptimi?



IBN SINO ULAŞAR DAVO



Ertalab yengil
Ovqatdan yegil.

Ichmoqliknii sut
Doim esda tut.

Har qaysi meva
Shifoga ega.

Olma ye gohi –
Mevalar shohi.

Bil, oddiy tuxum –
Davo to'la xum.



Turli oshko'kat –
Unda ko'p hikmat.



Yurakka kerak
Bargak va turshak.



Ovqatlanish ham
San'at chinakam.




Ovqat sifati
Tanning sihati.

Ovqat ye asta,
Bo'lmaysan xasta.

Ovqatda me'yor –
Sog'likka hamkor.

Po'lat Mo'min



- 1 Sizningcha, "yengil ovqat" qanday bo'ladi?
- 2 Mevalarning podshohi qaysi ekan?
- 3 Yurakka quvvat beruvchi narsa nima?
- 4 Kasal bo'imaslik uchun qanday ovqatlanish kerak?
- 5 Sifatli ovqatning xususiyatlarini ayting.
- 6 Siz ushbu qoidalarning qaysi birlariga amal qilasiz?



6. Izohlanayotgan so'zni matndan topib, daftaringizga yozing.
 She'rdan nonushtada qaysi mahsulotlarni iste'mol qilish mumkinligini topib yozing.
 Siz do'stingizga nonushta uchun yana qanday mahsulotlarni tavsiya qilasiz? Yozing.



Nuqtalar o'rniga qo'ygan so'zlaringizga qanday so'roq berish mumkin?





Nonushta uchun taomnoma tayyorlaymiz.



- Rasmdagi taomlardan nonushtada yeyish mumkin bo'lganlarini ajratib oling.
- Nonushtada yeyish mumkin bo'lgan mahsulotlarning foydali tomonlarini yozib chiqing.
- Ajratib olingan yeguliklarni qanday tartibda yeyish yoki ichish kerakligini yozing.



8. Nonushtangiz uchun taomnoma yozing.



9. Tengdoshingizga ertalabki nonushta uchun tavsiyalar yozing. Tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.



Nonushtadan oldin

Nonushta vaqtida

Nonushtadan keyin

MUSTAHKAMLASH



1. Rasmdagi har bir holatga mos gap tuzing.



2. Jadvalni to'ldiring.

Non, sut, asal, mantı, lavash, qovun, tarvuz, yong'oq, mayiz, ho'l meva, osh, sariyog', murabbo, sho'rva, qatiq, quruq meva.

Qaysi paytda is'temol qilish mumkin?

Nonushtada	Tushlikda	Kechki ovqatda



3. Qismlarni mazmun va ohang jihatidan moslab yozing.

Ichmoqlikni sut

Mevalar shohi.

Olma ye gohi –

Davo to'la xum.

Turli oshko'kat –


Doim esda tut.

Bil, oddiy tuxum –

Unda ko'p hikmat.

4-BO'LIM**TANAMIZNI O'RGANAMIZ**

Rasmga qarang. So'zlarni o'qing. Ular tananing qaysi qismlarini ifodalashiga diqqat qiling.

INSON TANASI QISMLARI


1. Daftardagi mashqlarni bajaring.



90



Rasmga qarang. Unda nima tasvirlangan?



Audiomatnni tinglang.



Savollarga javob bering.


- 1 Ikkita bir-biriga o'xshagan barmoq izini topish mumkinmi?
- 2 Nimalarni ko'ra olasiz-u, nimalarni ko'ra olmaysiz? Ko'zingizni yuming, ko'rish qobiliyati sizga qanday yordam berar ekan?
- 3 Burun inson tanasida qanday vazifalarni bajarar ekan?
- 4 Inson kislородни qayerdan oladi?
- 5 Nafas olishda qaysi a'zolarimiz ishtirok etadi?
- 6 Yuragingiz qayerda joylashganini bilasizmi? Qayerdan bilasiz?
- 7 Yuragimiz qanday vazifa bajaradi?
- 8 Tanadagi a'zolarning ishini qaysi a'zo boshqaradi?
- 9 Nima uchun doim yaxshi kayfiyatda bo'lish muhim?



91



Rasmdagi tana a'zolarini bilasizmi? Ularning nomini ayting.



2. Daftardagi mashqlarni bajaring.



Matnni o'qing.

Dars vaqtida bajarish uchun jismoniy mashqlar



1-mashq

Partada o'tirgan holatingizda qo'l-laringizni belingizga qo'ying. Bir deganda boshingizni asta-sekinlik bilan oldinga eging; ikki deganda boshingizni orqaga eging. Bu mashqni 4 marta bajaramiz.

2-mashq

Partada o'tirgan holatingizda bir deganda o'tirgan stulingiz suyanchig'ini ushlab, yelkangizni orqaga torting, kuraklaringizni bir-biriga yaqinlashtiring. Ikki, uch, to'rt deganda shu holatni ushlab turing, besh, olti deganda boshlang'ich holatga qayting. Bu mashqni olti marta bajaramiz.






3-mashq

O'rnimizdan turamiz. Oyoqlarimizni yelka kenglida ochamiz, qo'llarimiz – belda. Bir deganda egilamiz, tirsaklarimizni orqaga tortamiz, chap oyog'imizni orqa-ga olamiz, ikki-uch deganda shu holatda turamiz, besh, oltida boshlang'ich holatga qaytamiz. Endi xuddi shu harakatlarni o'ng oyog'imiz bilan ham bajaramiz. Bu mashqni olti marta takrorlaymiz.

4-mashq

Yo'lakka qarab o'tirgan holatda qo'llarimizni partaga va suyanchiqqa qo'yib, bir deganda oyoqlarimizni ko'taramiz. Ikki, uch, to'rt deganda shunday ushlab turamiz va besh, olti deganda dastlabki holatga qaytamiz. Bu mashqni 4 marta bajaramiz.



- 1 Bu matn siz shu vaqtgacha o'qigan matnlarga o'xshaydimi? Nimasi o'xshaydi va nimasi farq qiladi deb o'ylaysiz?
- 2 Matnda nechta mashq berilgan? Ularning nechtasi o'tirib bajarishga va nechtasi turib bajarishga mo'ljallangan?
- 3 Mashqlarda qaysi a'zolar ishtirok etyapti?



Rasmlarga qarab, qaysisida birinchi mashq, qaysilarda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi mashq tasvirlanganini toping.



3. Daftardagi mashqni bajaring.



She'rni o'qing.

SHAMOL NEGA SHAMOLLAMAS?



Shamol nega shamollamas,
Chuchkirmas yo yo'talmas?
Og'rimaydi boshi hatto,
Issig'i ko'tarilmas?

Uchramaydi doktorga ham,
Ehtiyoj yo'q doriga.
Aytolmaydi hech kim – shamol
Qachon, qay payt og'rigan.

O'ylab-o'ylab bildimki, u
Rostdan polvon shamoldir.
Ko'p yugurib turganidan
Sog'lom ham barkamoldir.

Farid Usmon



Savollarga javob bering.

- 1 Shamol va shamollahash so‘zlari bir-biriga bog‘liqmi?
Nima uchun?
- 2 Shamollahashga oid qanday holatlar she’rda tilga olingan?
- 3 Siz oxirgi marta qachon shamollagansiz?
Shamollaganingizda tanangizda qanday o‘zgarishlarni sezgansiz?
- 4 Shoир shamolning shamollamasligi sababi nimada deb biladi? Sizningcha, shoир haqmi?
- 5 Shoирning fikricha, odam sog‘lom bo‘lishi uchun nima qilishi kerak?



4. Daftardagi mashqlarni bajaring.



YO‘QOLGAN QULOQ

– Uyimizda nimagadir
Bugun quloq yo‘qoldi...
Tushunolmay hayron bo‘ldim,
Oyim shunday deb qoldi.

Hech bunaqa gap chiqmagan
Edi mening oyimdan.
Qulog‘imni ushlab ko‘rsam,
Xayriyatki, joyida.

Juda qiziq, qulog‘ini
Yo‘qotgan kim bo‘ldiykin?!
Hammamizning qulog‘imiz
Joyida edi, lekin...



Dadam menga ko'zin qisib,
Miyig'ida kulardi.
Ravshan akam yerga qarab,
Boshin egib turardi.



Farid Usmon



- 1 Qulq qanday a'zo va uning vazifasi nimadan iborat?
- 2 Eshitish bizga nimalarda yordam beradi?
- 3 She'r qanday voqeа haqida?
- 4 Bola qulq yo'qolganini kimdan eshitdi?
- 5 Miyig'ida kulish qanday bo'ladi?
- 6 Odam qanday vaziyatlarda boshini egib turadi?
- 7 Nima deb o'ylaysiz, dadasingning miyig'ida kulishi va akasining boshini egib turishi nimani bildiradi? Bu holatning qulq yo'qolishiga aloqasi bormi?
- 8 Kimning qulog'i yo'qolgan?



E'tibor bergen bo'lsangiz, kattalar "qulog'i yo'q", "qulqosiz", "ko'zingga qara" degan so'zlarni ko'p ishlatalishadi. Bu gaplar qanday vaziyatlarda aytildi va nimani bildiradi? So'zlab bering.



5. Daftardagi mashqni bajaring.



MUSTAHKAMLASH



- Bo'sh o'rirlarga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matnni o'qing.

Mushak, yurak, nafas, tana

Odam ____ sida 600 dan ortiq mushak bor. ____ lar suyaklarni bir-biriga ulab, birlashtirib turadi. Masalan, siz yugurishni xohlasangiz, bosh miya suyaklaringizga emas, balki mushaklarga buyruq beradi.

Mushaklar bo'lmasa, hatto ____ ham ololmaymiz. Ko'krak qafasimizdagi mushaklar qisqarib-kengayib nafas olishimizni ta'minlaydi.

Umr bo'yi tinmay urib turadigan ____ imizni ham mushaklar harakatlantiradi.




Savollarga javob bering.

- Mushaklar nima vazifani bajaradi?
- Harakat qilishimiz uchun bosh miyamiz nima qiladi?
- Nafas olishimizda mushaklar qanday yordam beradi?



- Partada to'g'ri va noto'g'ri o'tirish qanday bo'lishini aytib bering. Bunda dars davomida o'tilgan so'z va birikmalardan foydalaning.



5-BO'LIM**HUNAR – HUNARDAN UNAR**


Rasmlarga qarang. Hunarmandlar nima ish bilan shug'ullanyapti?




Temirchi



Kulol



Zargar



Duradgor



Chevar



Gilamdo'z



- 1 Hunarning yana qanday turlarini bilasiz?
- 2 Siz yashaydigan mahalla yoki ko'chada hunarmandlar bormi?
- 3 Hunarmandlar yasagan buyumlarning nomini bilasizmi?
- 4 Uyingizda qanday hunarmandchilik buyumlari bor?



1. Buyumlarga qarang, ularni kim tayyorlaganini yozing.





“O‘zbek hunarmandlari” audiomatnini tinglang.



- ① Kimlarni “hunarmand” deb ataymiz?
- ② Hunarmand yasagan buyum qanday bo'lishi kerak?
- ③ Shaharlarimiz qanday hunarmandchilik turlari bilan mashhur ekan?
- ④ Qaysi shaharlarda yirik hunarmandchilik markazlari bor?
- ⑤ Sayyoohlар hunarmandlarning ishiga qarab nimalarni bilib oladi?



2. Berilgan so'zlarga mos keluvchi qo'shimchalarni aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

soat

-gar

pichoq

do'ppi

gilam

-do'z

-chilik

-soz



99



HUNARNING FOYDASI

(Rivoyat)

Qadim zamonda bir boy savdogar yashagan ekan. Uning boyligi mamlakat podshohining boyligidan kam emas ekan. Shunga qaramasdan, savdogar o'g'lini gilamdo'zga shogird qilib beribdi. Gilamdo'z yigitga o'z hunarini o'rgatibdi. Tez orada yigit mahoratli gilamdo'z bo'lib yetishibdi.

Kunlardan bir kuni yigit do'stlari bilan sayrga chiqibdi. Savdogardan **pul undirish ilinjida** yurgan qaroqchilar yigitni o'g'irlab ketishibdi. Uni shahar chetidagi bir **xaroba** uyga qamab qo'yishibdi. Otasiga xat yuborib, **o'g'lining evaziga** katta pul so'rashibdi. Savdogar aytilgan pulni to'laganiga qaramay, **nafsi hakalak otgan** qaroqchilar yigitni qaytarmabdi. Endi oldingidan ham ko'proq pul talab qilishibdi. Bu safar savdogar pulni berishga shoshilmabdi. Qaroqchilarning **toqati toq bo'lib**,



asirni o'ldirmoqchi bo'lishganida, yigit ularga shunday debdi:

– Meni o'ldirsangiz, **mo'may daromaddan** quruq qolasiz. Agar menga kerakli narsalarni keltirib bersangiz, yaxshigina foyda ko'rishingiz mumkin.

Qaroqchilar boshlig'i pul uchun hamma narsaga ko'nishga tayyor edi. U yigitdan nimalar kerakligini so'rabdi. Yigit gilam to'qish uchun jun ip va dastgoh keltirishlarini so'rabdi. Qaroqchilar bu narsalarni bir zumda topib keltirishibdi. So'ng yigit gilam to'qishga kirishib ketibdi.

Qaroqchilar tayyor gilamni bozorga olib chiqishibdi. Bozor aylanib yurgan savdogar o'g'li to'qigan gilamni tanib qolibdi. Bir kishi orqali uni katta pulga sotib olibdi. Uyga kelib, gilamni diqqat bilan tekshiribdi. O'g'li gilamdagи naqshlar orasiga o'zi turgan joyning xaritasini ustalik bilan joylashtirgan ekan. Savdogar tez mirshabxonaga boribdi. Shunday qilib, u o'g'lini tutqunlikdan xalos qilibdi.



- ① Nima deb o'ylaysiz, savdogar nega farzandini hunarli qildi?
- ② Savdogarning o'g'li qanday hunar o'rgandi? Bu hunar haqida nimalarni bilasiz?
- ③ Qaroqchilarning maqsadi nima edi?
- ④ Nega savdogar ikkinchi marta pul to'lashga shoshilmadi?
- ⑤ Nima deb o'ylaysiz, rivoyatning ertakdan farqi bormi?



Rivoyat – og‘izdan og‘izga o‘tib keladigan hikoya. Rivoyatdagi voqealar har doim ham uydirma bo‘lavermaydi. Qisman bo‘lsa-da tarixiy voqealarga asoslanadi.



3. “Hunarning foydasi” rivoyati asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalarning izohini aniqlang.
2. Bo‘sh o‘rnlarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring.
3. Matn asosida berilgan fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
4. Rivoyatdan olgan xulosangizni qisqacha yozing.



HUNARNING HIDI QANAQA?

I. Har hunarning o‘zicha
Bordir hidи – belgisi.
Novvoyxonadan kelar
Xamirturushning isi.



II. Ustaxona yonidan
O‘tib qolsang-chi agar –
Yangi taxta, payraha
Hidi dimoqqa tegar.


III. Qandolatchidan esa
Mag‘izning hidи kelar.
Doktorning xalatidan
Anqir xushbo‘y dorilar.

IV. Omoch ortidan asta
Dalada yurar dehqon.
Tuproq va o‘tloq hidи
Bo‘lar unda har qachon.

V. Baliqchining ustidan
Dengiz hidi kelganday,
Faqtat bekorchilarning
Hidi bo'lmash hech qanday.

VI. Ishyoqmaslar har qancha
Atir sepsin, behuda!
Dangasalikning hidi
Qo'lansa bo'lar juda!

Janni Rodari



- 1 Ayting-chi, hunarning hidi bo'lishi mumkinmi?
- 2 Sizningcha, yana qaysi hunardan qanday hid kelishi mumkin?



4. Berilgan rasmlarni she'rning qaysi bandiga mos kelishini aniqlang.




Namuna: **V – 1.**



Rasmlarga qarab, ko'za yasash jarayoni haqida hikoya yozing. Rasmlardagi ketma-ketlikka e'tibor bering.

Ko'za yasash sirlari



MUSTAHKAMLASH



1. Hunarmandlarning nomini yozing.



- 1 Bu hunarmandlar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
- 2 Ular yasagan buyumlardan qachon, qayerda foydalanamiz?



Maqollarni o'qing. Mazmunini ayting.

Tikansiz gul bo'lmas,
Mashaqqatsiz – hunar.

Qunt bilan o'rgan hunar,
Hunardan rizqing unar.

Tekin boylik axtarguncha,
O'zingga bop hunar top.

Bir yigitga
qirq hunar oz.



2. So'zlarni mos qo'shimchalarni qo'shib yozing.

temir

bino

kulol

sotuv

shifo

ish

ipak

gilam

-chi,
-kor,
-do'z,
-chilik

5-BO'LIM

KASBLAR



Gaplarni o'qing. Ular qaysi kasb egasi haqida ekanini
toping. Rasmlardan mosini tanlang.



U odamlarga shifo ulashadi.

U bolalarni o'qitadi.

U yong'inni o'chiradi.

U shirin ovqatlar pishiradi.

o't o'chiruvchi

shifokor

o'qituvchi

oshpaz



- 1 Otangizning kasbi nima? U qayerda ishlaydi?
- 2 Onangizning kasbi nima? U qayerda ishlaydi?
- 3 Shifokorni yana qanday ataymiz?
- 4 Tanlanmay qolgan rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan?



105



1. So‘zlarda takrorlanayotgan qismlarga e’tibor qarating. Qatorni davom ettiring.

Namuna: osh – oshxona – oshpaz.

yoz – yozma – qo‘lyozma –

non – ... – ...

hisob – ... – ...

shifo – ... – ...



2. Qismlarni moslashtiring.



3. So‘zlarga **-uvchi** qo‘sishimchasini qo‘shib, kasblar nomini hosil qiling.

Namuna: tik + uvchi = tikuvchi.

qur

+

-uvchi

=

sot

+

-uvchi

=



o‘qit

+

-uvchi

=

uch

+

-uvchi

=



Ayrim so‘zlarga **-uvchi** qo‘sishimchasini qo‘sish bilan kasb nomlarini hosil qilish mumkin. Masalan, *tik + uvchi = tikuvchi*.

Lekin hamma so‘zga ham bu qo‘sishchani qo‘shib, kasb nomini hosil qilib bo‘lmaydi. Masalan, *chiz + uvchi = chizuvchi*. Rasm chizadigan odamni chizuvchi deyilmaydi. Uni **rassom** deyiladi.



“Shifokor o‘yini” qo‘sishini tinglang.



- 1 Shifokor qabuliga quruvchidan keyin kim keldi?
- 2 Nima uchun shifokorlar og‘zimizni ochib, tilimizni chiqarishimizni so‘raydi?
- 3 Mahallada doktor bo‘lishining nimasi yaxshi?
- 4 Politsiyachi ukol olganda og‘riqni sezdimi?
- 5 Ukol qilsa og‘rimasligining sababi nima ekan?
- 6 Qo‘sinqni birgalikda qayta kuylang.



4. “Agar shifokorlar bo‘lmasa” deb boshlanuvchi 6 ta gap tuzing.

Namuna: Agar shifokorlar bo‘lmasa, tuzalishimiz qiyin bo‘ladi.



5. Qaysi kasb egasi nima ish qiladi?



6. “Men ishlab chiqaradigan dori” mavzusida kichik matn yozing. Matnda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga ahamiyat bering:

- ✓ dorining nomi;
- ✓ qanday kasallikka davo bo‘lishi;
- ✓ nima uchun bu dori kerak deb o‘ylashingiz;
- ✓ u dorini birinchi kimga berishingiz.




Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

KUNDALIGIMDAGI “2”

Bu kundalikka 34 yil bo‘ldi. 2-sinfda tutgandim. Odatda o‘quvchilarimga shu kundaligimni namuna qilib ko‘rsataman. Lekin ular ancha sergak. Hech narsani nazardan chetda qoldirishmaydi. Sho‘x o‘quvchim Jasurbek: “Ustoz, siz ham “2” baho olganmisiz?” – deb so‘radi. Shunda kundaligimning 42-sahifasidagi katta

“2”ni esladim. Matematika fanidan olgandim. O‘quvchilarimning ko‘zlari katta-katta bo‘lib ketdi. Kundalikni qo‘lma-qo‘l olib tomosha qila boshlashdi. Bir o‘quvchim: “Uy vazifasini tayyorlab kelmaganmidingiz, ustozi?” – dedi. Aslida, o‘shanda yangi mavzuga qulq solmay, she’r yozib turgandim. Ustozimning savoliga javob berolmay, “2” olganman. Ruxshona: “Nega shu paytgacha bu “2”ni ko‘tarib yuribsiz, yirtib tashlamaysizmi?” – deb so‘rab qoldi. Uning boshini silab: “Inson hayotda rostgo‘y bo‘lishi kerak. O‘z kamchiligini tan ola bilish – yaxshi fazilat. Faqat yutuqlar bilan g‘ururlanish insonga zarar keltiradi. Xatolarini tushunib yetishni o‘rganish lozim. Bunday fazilat egalari hayotda to‘sqliqlarga duch kelganida dovdirab qolmaydi. Ularni yengishga kuch topa oladi”, – deya nasihat qildim. “Agar “2” bahoni yirtganimda, sizlar menga ishonmay qolardingiz. Kundalikning sahifasi yirtilganini ziyrak bolalar darrov bilib oladi”, – dedim so‘zim yakunida.

“Ma’rifat” gazetasidan olindi



- 1 O‘qituvchi nega hozirgi o‘quvchilarini ancha sergak demoqda?
- 2 “Ko‘zlari katta-katta bo‘lib” deganda qanday holat tushuniladi?
- 3 Nega o‘quvchi: “Vazifani tayyorlab kelmaganmidingiz, ustozi?” – deb savol berdi?
- 4 O‘qituvchi nega “2” baho olgan edi?
- 5 O‘qituvchi nega “2” bahoni yirtib tashlamagan?



7. O'zingizdagi 4 ta kamchilikni yozing.



8. "O'qituvchilar borligi uchun" deb boshlanuvchi 6 ta gap tuzing.

Namuna: O'qituvchilar borligi uchun men yozishni bilaman.



Bularni kim ishlataladi?



"Kelajak me'mori" hikoyasini tinglang. Savollarga javob bering.



- 1 Yorqinoyni doim qanday savollar qiyagan?
- 2 Yorqinoyning otasi uning kim bo'lishini istagan edi?
- 3 Yorqinoy ustozlaridan nimalarni o'rgandi?
- 4 Nega o'qituvchilikni dangasalik deb atadi?
- 5 Yorqinoy qaysi fandan "1" baho olgan?



9. Berilgan gaplarning qaysi biri Yorqinoyning aytganlariga mos kelishini toping.



10. "Men o'qituvchi bo'lsam, bolalarni qanday o'qitaman?" mavzusida kichik matn yozing.



- 1 Siz o'qituvchi bo'la olasizmi?
- 2 Nima uchun bunday o'qitish kerak deb o'ylaysiz?

MUSTAHKAMLASH



So‘zlarga kerakli qo‘sishimchlarni qo‘shib, kasb nomlarini yasang. Og‘zaki javob bering.

qur___

hisob___

shifo___

dastur___

sot___

tik___

osh___

non___

yoz___

dizayn___

uch___

qo‘sishiq___

haydov___



Quyidagi gaplarni davom ettiring.

Agar quruvchilar bo‘lmasa, _____








Agar dasturchilar bo‘lmasa, _____

Agar tikuvchilar bo‘lmasa, _____

Agar uchuvchilar bo‘lmasa, _____



Quyidagi usulda qog‘ozdan uchoq yasang. Yasash jarayonini so‘zlab berishga harakat qiling.



5-BO'LIM

KATTA BO'LSAM,
KIM BO'LAMAN?

1. Katta bo'lsangiz, kim bo'lmoqchisiz? Yozing.



- 1 Rasmda qaysi kasb egalari tasvirlangan?
- 2 Ular qayerda ishlaydi?
- 3 Yana qanday kasblarini bilasiz?
- 4 Nima uchun aynan shu kasb egasi bo'lmoqchisiz?
- 5 Siz tanlagan kasbning boshqalarga qanday foydasi bor?



2. Moslashtiring.



OLIM BO'LMOQCHIMAN...

Kim bo'lsam ekan, deb rosa o'yladim. Avvaliga o'qituvchi bo'lmoqchi edim. **Chunki** o'zing egallagan bilimni boshqalarga ham o'rgatish yaxshi-da! **Axir**

o'qituvchilar borligi uchun ham biz
bugun o'qishni, yozishni bilamiz...


Ammo o'ylab qarasam,
boshqalarga ilm berish
uchun o'qituvchilikdan ham
afzalroq soha bor ekan. Bu –
olimlikdir! O'zingiz o'ylab ko'ring,
o'qituvchi butun bir sinfga ilm
o'rgatadi. Deylik, u bir kunda 5 ta
sinfga dars bersa, jami 150 kishini
o'qitgan bo'ladi. Olim yozgan
kitoblar esa 10 minglab nusxada
nashr qilinadi. Ular 100 minglab
xonadonga ilm ziyosini ulashadi!
Demak, olim bo'lsam, xalqimga, yurtinga foydam
ko'proq tegar ekan, degan xulosaga keldim.

Lekin olimlik oson qo'lga kiritiladigan daraja emas.
Buning uchun juda ko'p o'qish kerak. Shunchaki o'qish
emas, o'qiganlaringni yodda saqlash, tahlil qilish, turli
ma'lumotlarni saralay bilish ham lozim. Shundagina
asl haqiqatni aniqlab, turli kashfiyotlar, ixtiolar qilish,
fanga yangiliklar kiritish mumkin bo'ladi.

Xullas, shu kunlarda olim bo'lish uchun belni
bog'lab, obdan harakat qilyapman. Ilm zinalaridan
ilgarilamoqchi bo'lgan o'quvchi faqatgina maktab
darsliklari yoki uy vazifalarining o'zi bilan chegaralanib
qolmasligi kerak ekan. Shuning uchun ham men ota-
onam olib bergen turli mavzudagi badiiy, ilmiy va
ensiklopedik kitoblarni birma-bir o'qib chiqyapman.



"Jazzi akademik" jurnalidan olindi



- 1 O'qituvchi bo'lish nimasi bilan yaxshi?
- 2 Nima uchun qahramonimiz olim bo'lishga qaror qildi?
- 3 Olim bo'lish uchun yaxshi o'qishning o'zi yetarlimi?
- 4 Olim bo'sangiz, qanday ixtiolar qilardingiz?



3. Quyidagi so'zlar matnda nima maqsadda qo'llangan?

chunki

axir

ammo

lekin

1 olimlik oson ish emasligini, ortida katta mehnat borligini ko'rsatish uchun

2 o'qituvchi bo'lishga qaror qilganining sababini ko'rsatish uchun

3 o'qituvchi bo'lishdan voz kechib, olimlikni tanlaganini ko'rsatish uchun

4 o'qituvchi kasbining yaxshi tomonlarini ta'kidlash uchun



4. Quyidagi gaplarni o'qing. Bu ishlarni ertaga qilmoqchi bo'sangiz, gaplarni qanday o'zgartirasiz?

1. Men bog'da olma teryapman.

2. Men kitob o'qiyapman.

3. Men buvimlarnikiga ketyapman.

4. Men uy vazifalarimni bajaryapman.

5. Men qushlarga in yasayapman.



Harakatni bildirgan so‘zga **-a**, **-y** qo‘sishim-chalaridan birini qo‘shsak, shu harakatni birozdan keyin, ertaga, indinga, keyingi yili, xullas, kelgusida qilmoqchi ekanimizni anglatadi. Masalan: *Men olma teryapman* – hozir teryapsiz. *Men ertaga olma teraman* – hozir emas, ertaga. *Bu kitobni kechki payt o‘qiyman* – hozir emas, kechki payt o‘qimoqchisiz.



KUNGABOQAR VA TO‘LQINJON

Kungaboqar gullari
Pista bo‘laman, debdi.
Orzu qilib To‘lqinjon
Usta bo‘laman, debdi.

Kungaboqar gullari
Ochilibdi-kulibdi.
Mix qoqay deb To‘lqinjon
Qo‘iga bolg‘a uribdi.


Kungaboqar bor gulin
Go‘yo qalam qilibdi.
Rom yasolmay To‘lqinjon,
Rosa alam qilibdi.

Kungaboqar oxiri
Pishib, pista bo‘libdi.
To‘lqinjon ham ko‘p unnab,
Mohir usta bo‘libdi.


Xoh o‘simlik, xoh odam
Bo‘lsa tirishqoq, bardam,
Ko‘ngil qo‘ysa mehnatga,
Albat yetar maqsadga.

*Muhammadjon
Qo‘sboqov*





- 1 To'lqinjon tanlagan kasbning nimasi yaxshi?
- 2 Nima uchun mix qoqayotganda bolg'ani qo'lga urib olish mumkin?
- 3 Rom nima? U nima uchun ishlataladi?
- 4 Havaskor va mohir usta o'ttasida qanday farq bor?
- 5 Oxirgi qatorda nega albatta so'zi "albat" shaklida ishlataligan?



Kelajakda kim bo'lmochisiz? Bu haqida sinfdoshlar ringizga aytib bering. So'zlash jarayonida quyidagi savollarga javob bering:

- ✓ Kelajakda kim bo'lmochisiz?
- ✓ Nega aynan shu kasbni tanladingiz?
- ✓ Bu kasbning qiyinligi nimada?
- ✓ Bu kasbni egallash uchun nimalar qilish kerak?



Yondaftarcha yasang. Unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishiga e'tibor qarating:

- ✓ Yondaftarchangizni nomlang.
- ✓ Orzularingizni nimaga qiyoslaysiz? Rasmini chizing.
- ✓ Rasmlarni nomlab chiqing.
- ✓ Orzularingiz uchun bittadan maqsad yozing.



MUSTAHKAMLASH



Bo'sh o'rirlarni kerakli so'zlar bilan to'ldirib ko'-chiring.

axir

ammo

chunki

lekin

Nasibadan shifokor chiqmasa kerak, ... u qondan qo'rqadi-ku!



Men uchuvchi bo'lmoqchiman. Maktabda yaxshi o'qiymen, ... buning o'zi yetarli emas, deb o'ylayman.

Katta bo'lsangiz,
kim bo'lmoqchisiz?

Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman, ... bilganlarimni boshqalarga o'rgatishni yaxshi ko'raman.



Karimaning onasi tikuvchi,
... u shifokor bo'lmoqchi.



O'zingiz yoqtirgan kasb haqida yozing. Quyidagi ketma-ketlikka amal qiling.

- 1 Bu qaysi kasb?
- 2 Bu kasbning nimasi sizga yoqadi?
- 3 Bu kasb bilan shug'ullanadigan tanishlaringiz bormi?
- 4 Bu kasbning boshqalarga qanday foydasi bor?

MATNLARDA QO'LLANGAN SO'ZLAR LUG'ATI

Afrika – Yer yuzidagi beshta qit'aning biri.

Asir – dushman qo'liga tushib qolgan odam. Uni majburlab ushlab turishadi.

Asr – vaqt o'lchovi. Bir asr 100 yilga teng.

Astronom – osmon jismlari, koinot tuzilishini o'rjanuvchi olim.

Baliq xo'jaligi – baliq boqish, ko'paytirish, sotish bilan shug'ullanadigan korxona.

Bama'ni – aqlli, o'ylab ish qiladigan.

Bargak – danagi olib quritilgan o'rik.

Barkamol – yaxshi rivojlangan.

Bo'yinbog' – uy hayvonlarining bo'yninga taqiladigan qayish.

Dili vayron – ruhan ezilgan, ko'ngli buzilgan holat.

Ehtiyoj – biror narsaga bo'lgan talab, zarurat.

Faol – harakatchan, ko'p harakat qiladigan.

Faxriy – biror sohada uzoq mehnat qilgan, katta hurmatga ega kishi.

Galaktika – Quyosh va boshqa 200 milliarddan ortiq yulduzni o'z ichiga olgan juda katta tizim.

Hademay – tez orada; tezda, bir-pasda.

Hakalak – bir oyoqlab sakrab yurish. "Nafsi hakalak otmoq" iborasida "ishtahasi ochilib, nafsimi to'xtata olmaslik", "nafsi yomonlik" degan ma'nolar bor.

Hamjihatlik – birgalikda harakat qilish, inoqlik.

Hamon – hozirgacha, hali ham.

Haqorat – biror kishini yerga uradigan, kansitadigan so'z yoki gap.

Hashar – biror ishni ixtiyoriy holda ko'pchilik bilan bajarish, ko'mak berish.

Hatlab – bir joydan boshqa joyga qadamlab yoki sakrab o'tmoq.

Hoynahoy – taxminan, balki, ehtimol.

Hudud – joy.

Itlarbop – itlarga mos, itlarga yara-shadigan.

Izg'irin – sovuq shamol.

Izmiga olmoq – o'z yo'liga solmoq, o'ziga bo'ysundirmoq.

Jazirama – juda issiq, oftobi kuydir-adigan joy.

Junjikmoq – sovuqdan eti uvushib qaltirash.

Kashfiyat – ilmiy yangilik.

Kislород – havo tarkibida bo'ladigan hayot uchun zarur modda, zarrachalar.

Kosov – olovni to'g'rilash, tortish uchun ishlataladigan uzun tayoq.

Mahalla ahli – bir mahallada yashovchi kishilar.

Majlis – ko'pchilik yig'ilib, biror masala haqida gaplashishi.

Mikroskop – mayda, ko'zga ko'rinish narsalarni kattalashtirib ko'rsatuvchi asbob.

Mirshabxonा – tarixda mirshab hozirgi ichki ishlar xodimi vazifasini bajargan. Mirshablar o'tiradigan joy esa mirshabxona deyilgan.

Mizg'imоq – ozgina uxlash.

Mo'jiza – hayron qoldiradigan narsa.

Mo'may – ko'p, ancha, salmoqli.

Mudramoq – yarim uyqu, yarim uyg'oq holatda bo'lish.

Mushtоq – sabrsizlik bilan kutuvchi.

Neft – suyuq yonuvchi qazilma boylik.

Neftchi – neft qazib oluvchilar.

Nobud bo'lish – halok bo'lish, o'lish.

Noo'rin – o'rinsiz, kutilmagan.

Obdan – juda ham, rosa ham.

Odim – qadam.

Odimladi – yurdi.

Ohista – sekin, asta.

Orlanmoq – uyalmoq; tortinmoq, o'ziga munosib ko'rmaslik.

Ov mavsumi – ma'lum yovvoyi hayvonlarni otishga ruxsat beriladigan vaqt.

Ovloq – odamlardan xoli, chet joy.

Parovoz – poyezd qatorining oldida hamma vagonlarni tortib yuradigan, bug'da ishlaydigan mashina.

Patnis – idish-tovoq, non, qand-qurs, meva-chevalarni solib tashish uchun mo'ljallangan buyum.

Pinak – endi uyquga ketish vaqtin, mudroq bosish.

Qazilma – yer ostidan qazib olinadigan narsalar (ko'mir, neft, ruda va shu kabilar).

Qo'lyozma – qo'lda yozilgan xat, kitob. Bu turdag'i xat va kitoblar kompyuterda emas, qo'lda yozilgan bo'ladi.

Qo'noqlamoq – qo'nmoq, hordiq uchun qo'noqqa chiqmoq.

Qo'rish – qo'riqlash.

Qovjiramoq – suvsizlik yoki issiqdan qurib, bujmaymoq.

Quvur – suv, bug', gaz va shu kabilar oqishi uchun temir, beton va boshqalardan ishlangan uzun, ichi bo'sh maxsus qurilma.

Rapida – non yopuvchi moslama.

Rossiya – O'zbekistondan shimolda joylashgan mamlakat.

Ruda – tarkibida metall va uning birikmalarini bo'lgan tabiiy mineral xomashyo.

Sahro – o'simligi juda kam, suvsiz bepoyon dasht, biyobon; cho'l.

Saralash – ajratib chiqish.

Sarlavha – kitob, asar, ertak, she'r va shu kabilarning nomi.

Separator – sutdan qaymoqni ajratuvchi uskuna.

Sergak – darrov sezib qoladigan, tez tushunadigan, farosatli.

Sihat – tan sog'ligi, sog'lik, sog'lomlik.

Suv havzalari – suv yig'ilib turadigan joylar.

Tag'in – yana, yana bir bor.

Ta'na – xatolik, ayb yoki kamchilikni betga solib yoki kamsitib aytilgan gap yoki xatti-harakat.

Tansiq – kam tayyorlanadigan yoki biror joyda kam bo'ladigan, lekin sevib iste'mol qilinadigan yegulik.

Tavallud – tug'ilish.

Tilsim – har qanday sirli, narsasini bilib, topib bo'lmaydigan, yashirin joy.

To'ngmoq – muzlamoq.

Tug'ma instinct – biror vaziyatda qanday harakat qilishni belgilab beradigan tug'ma xususiyat.

Tumtaraqay – har tomonga tartibsiz qochish.

Tutqun – asirga olingen, qamab qo'yilgan odam.

Ulashish – taqsimlab berish, tarqatish.

Xaroba – qarovsiz qolgan, vayron bo'lgan bino.

Xasta – kasal.

Xayriyat – yaxshiyamki.

Xazon – kuzda sarg'ayib to'kilgan barg.

Xilvat – odamlardan xoli, chet joy.

Xum – ichi chuqur, og'zi kichik sopol idish.

Yaqin Sharq davlatlari – O'zbekistondan janubi-g'arb tomonda joylashgan Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabiston, Isroi, Qatar, Misr kabi mamlakatlar.

Yevropa – Yer yuzidagi beshta qit'aning bri.

Yiroq – uzoq.

Zarra – juda kichik bo'lak.

Ziyo – nur, yorug'lik.

Ziyrak – aqli, dono, tezkor fikrلайдиган.

Shay – biror ishga hozirlanish, tayyor turish.

Shippak – yengil oyoq kiyimi.

Shopirish – idishdag'i suyuqlikni cho'mich yoki boshqa narsa bilan olib qayta quyish.

Chatoq – yomon.

Chuchkirmoq – aksirmoq.

Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 120 b.

ISBN 978-9943-7299-2-6

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O'zb)ya71

O'quv nashri

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

1-QISM

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining
2-sinfi uchun darslik*

Muharrir Xurshidbek Ibrohimov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Rassom Shohrux Rahmatullayev
Dizayner Kamola Ahmedova
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Sahifalovchi Muhsina O'ktamova
Musahhih Mohinur Ablahakimova

Bosishga ruxsat etildi —— Bichimi 60x84 1/₈.
Arial Rounded garniturası. Kegli 16 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i —. Nashriyot-hisob tabog'i —.
Adadi — nusxa. Buyurtma —.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.